

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 107 (1706), 2026-yil 27-may, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## O‘ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, yurtimizdagi barcha mo‘min-musulmonlar, butun xalqimizni bugungi ulug‘ ayyom — muborak Qurbon hayiti bilan chin qalbindan samimiy muborakkod etaman.

Tinchlik, mehr-oqibat va saxovat bayrami — Iyd al-Adha muqaddas dinimiz mohiyatida mujassam bo‘lgan ezu g‘oya va amallarni yaqqol ifoda etgan holda, hozirgi kunda mamlakatimizda insonparvarlik ruhida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning ma‘no-mazmuniga uyg‘un va hamohang ekani bilan barchamiz uchun yanada aziz va qadrlı bo‘lib bormoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, ko‘p millatli yurtimizda osoyishtalik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, yordamga muhtoj insonlar, muhtaram nuroniyalar, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, mahalla va xonadonlarni obod qilishga qaratilgan ishlarimizda Qurbon hayitining ezu an‘analari kuch-g‘ayrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilayotganini ta‘kidlash lozim.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning qadimiy tarixi va boy madaniy qadriyatlarini, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning ilmiy-ma‘rifiy merosini, islom dinining asl mohiyatini o‘rganish va targ‘ib etish borasidagi ishlarimiz yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Buni yaqinda xalqimiz va yurtimiz mehmonlari uchun o‘z eshiklarini ochgan azim poytaxtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi, Marg‘ilon shahridagi Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasi kabi Yangi O‘zbekiston mo‘jizalari bo‘lgan noyob obidalar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Hech shubhasiz, bularning barchasi Yangi O‘zbekistonda barpo etish yo‘lidagi muhim tarixiy qadamlar bo‘lib, ular bizni yanada katta safarbarlik bilan harakat qilishga da‘vat etadi.

Hurmatli do‘stlar!

Yurtimizda diniy e‘tiqod erkinligini ta‘minlash uchun yaratib berilayotgan qulay sharoitlar tufayli ushbu

munavvar kunlarda 15 mingdan ziyod vatandoshlarimiz muqaddas Haj amallarini ado etmoqda. Bu yil tariximizda ilk marta “Prezident hojilari” dasturi joriy etilganidan xabaringiz bor. Ushbu dasturga muvofiq, el-yurtimizga sidqildidan xizmat qilgan 100 nafar yurtdoshimiz — ulamolalar, nuroniyalar, mahalla faxriylari hamda ularning oila a‘zolari muborak Haj safariga borish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Mana shu saodatli onlarda barcha hojilarimizni Qurbon hayiti bilan qutlab, ibodatlari qabul bo‘lishini Alloh taolodan so‘rab qolamiz. Muqaddas ziyoratdan qaytib keladigan bu hurmatli yurtdoshlarimiz ezigulik va ma‘rifat targ‘ibotchilari sifatida oila va mahallalarimizda, butun jamiyatimizda olib boriladigan ma‘naviy-tarbiyaviy ishlarda faol ishtirok etadilar, deb umid qilamiz.

Fursatdan foydalanib, dunyoning turli mamlakatlaridagi musulmon do‘stlarimiz va hamkorlarimizga ham qizg‘in qutlovlarimizni yo‘llab, ularga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilab qolamiz.

Aziz vatandoshlar!

Qurbon hayiti munosabati bilan bu yil ham bir necha kundan iborat dam olish kunlari belgilandi. Bayram kunlarida ham elimiz xizmatida, Vatan sarhadlarida o‘z vazifasini mas‘uliyat bilan ado etayotgan yurtdoshlarimizga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Chet ellarda tahsil olayotgan va ishlayotgan vatandoshlarimizni ham samimiy tabriklab, ularning barchasiga ezu tilaklarimizni izhor etamiz.

El-yurtimizni shunday qutlug‘ ayyomga tinchlik-omonlikda va hamjihatlikda yetkazgani uchun Alloh taolaga hamdu sanolar bo‘lsin!

Ilohim, Yaratgan parvardigor el-yurtimizni o‘z panohida asrasin!

Qurbon hayiti barchamizga muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

## KO‘MIR SANOATIDA BOZOR MEKANIZMLARI JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ko‘mir sanoatida bozor mexanizmlarini joriy etish, ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va yangi investitsiya loyihalari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Ko‘mir iqtisodiyot tarmoqlari, issiqlik elektr stansiyalari, ijtimoiy muassasalar va aholi ehtiyojini ta‘minlashda muhim energiya manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, sohada barqaror ta‘minot, mahsulot sifati, narxlar shaffofligi, raqobat muhiti va ekologik talablarni ta‘minlash dolzarb ahamiyatga ega.

Mustaqillikning dastlabki 25 yilida ko‘mir qazib chiqarish o‘rtacha 3,1 million tonnadan 4 million tonnagacha oshgan bo‘lsa, so‘nggi 9 yilda ushbu ko‘rsatkich 10 million tonnaga yetkazildi. Kelgusi kuz-qish mavsumida ko‘mir qazib chiqarish hajmini 11 million tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda ko‘mir qazib chiqaruvchi xususiy tadbirkorlar soni 18 taga yetdi. 2023-2025-yillarda ular tomonidan geologiya-qidiruv ishlari kengaytirilib, 2,4 million tonna ko‘mir qazib chiqarildi. Mazkur jarayonlarga 117,2 million dollar xususiy investitsiyalar yo‘naltirildi. Angren va Sharg‘un ko‘mirilarini aralashtirish hisobiga issiqlik elektr stansiyalariga 1,5 million tonna import o‘rnini bosuvchi, yonuvchanligi yuqori bo‘lgan mahalliy ko‘mir yetkazildi.

Taqdimotda ko‘mir narxlarini shakllantirishni bozor tamoyillariga o‘tkazish masalasi ko‘rib chiqildi.

Davomi 2-beta

## HAYIT — MILLIY VA DINIY QADRIYATLARIMIZ TARANNUMI



Bismillahir rohmanir rohim.

Qalblarimizga surur, xonadonlarimizga qut-baraka, fayz-u futoh bag‘ishlaydigan muborak Qurbon hayiti bilan barcha yurtdoshlarimizni, butun O‘zbekiston xalqini chin qalbdan samimiy muborakkod etaman.

Dunyo musulmon olami, islom ummati ushbu qutlug‘ ayyomni cheksiz shodlik va shukronalik bilan keng nishonlamogda. Zotan, Qurbon hayiti islom dinidagi eng ulug‘ va muqaddas bayramlardan biri bo‘lib, mo‘minlar yuragida mehr-muhabbat, bag‘rikenglik, saxovat tuyg‘ularini yuksak darajada uyg‘otadi. Shu bilan birga, bayram tufayli ijtimoiy birdamlik, millatlararo totuvlik, go‘zal fazilatlar amalda namoyon bo‘ladi.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida: “Arafa kuni, Qurbonlik kuni va tashriq kunlari biz, ahli islomning bayram kunlarimizdir”, deya e‘tirof etganlar (Imom Nasoiy rivoyati). Shu bois, bu muborak kunlarni munosib kutib olish va nishonlash qalblarimizga alohida shukuh bag‘ishlaydi.

Davomi 2-beta

## SAMIMIY QUTLOVLAR

Insonparvarlik, mehr-muruvvat va bag‘rikenglik kabi olijanob umuminsoniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muborak Qurbon hayiti — Iyd al-Adha munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli siyosiy, jamoat va diniy arboblardan tabrik maktublari kelmoqda.

Xorijiy hamkorlar o‘z qutlovlarida O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqiga samimiy hurmat-ehtirom izhor etib, yurtimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tilamoqda, vijdon va e‘tiqod erkinligini ta‘minlash, barqaror taraqqiyotga erishish, inson qadrlini ulug‘lash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuksak baholab, do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini bundan buyon ham mustahkamlashga qat‘iy intilishlarini ta‘kidlamogda.

Jumladan, quyidagilar o‘z tabriklarini yo‘llagan:  
Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart TOQAYEV;  
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir JAPAROV;  
Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali RAHMON;  
Turkmaniston Prezidenti Serdar BERDIMUHAMEDOV;  
Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV;  
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom ALIYEV;  
Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton NAZARBOYEV;  
Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip ERDOG‘AN;  
Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh AS-SISI;  
Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid OI NAHAYON;

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi Shayx Muhammad bin Roshid OI MAKTUM;  
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident ishlari bo‘yicha vaziri Shayx Mansur bin Zoid OI NAHAYON;  
Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o‘rinbosari, ichki ishlar vaziri Shayx Sayf bin Zoid OI NAHAYON;  
Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish‘al al-Ahmad al-Jobir as-SABOH;  
Kuvayt Davlati Valiahdi Shayx Saboh al-Holid al-Hamad as-SABOH;  
Jordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II;  
O‘mon Sultoni Haysam bin TORIQ;  
Bahrayn Podshohi Hamad bin Iso OI XALIFA;  
Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti Abdulmajid TEBBUN;  
Falastin Davlati Prezidenti Mahmud ABBOS;  
Saudiya Arabistoni Podshohligi davlat vaziri, Vazirlar Kengashi a‘zosi Turki bin Muhammad bin Fahd bin Abdulaziz OI SAUD;  
Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Husayn Ibrohim TOHA;  
Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek OMURALIYEV;  
Kavkaz musulmonlari idorasi raisi Shayxulislom Ollohshukur POSHOZODA.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

## KICHIK BIZNES UCHUN QULAY SHAROIT YARATISH BO‘YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kichik biznes subyektlari o‘sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma‘muriy sharoitlar yaratishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Kichik biznes iqtisodiyotda bandlik, daromad va raqobat muhitini ta‘minlaydigan muhim tarmoq hisoblanadi. Shu bois, so‘nggi yillarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmogda.

Shu bilan birga, amaldagi ayrim tartibotlar biznesning tabiiy o‘shishiga to‘sqinlik qilmoqda. Xususan, kichik biznes subyektlari tushumi 1 milliard so‘mgacha bo‘lganda soddalashtirilgan soliq rejimida ishlaydi. Ushbu chegaradan oshganda esa qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lashga o‘tadi.

Mazkur chegara 2019-yilda belgilangan bo‘lib, o‘tgan davrda narxlar sezilarli ravishda oshdi. Natijada ayrim tadbirkorlar 1 milliard so‘mlik chegaraga yaqinlashganda aylanmani yashirish, chek bermaslik yoki biznesni bir necha subyektga bo‘lish amaliyotiga o‘tmogda.

Taqdimotda 2026-yil 1-iyundan kichik biznes uchun umumiy soliq rejimiga o‘tishdagi chegaraviy miqdorni 1 milliard so‘mdan 5 milliard so‘mga oshirish taklif qilindi.

Shuningdek, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini

to‘lashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish tashabbusi bildirildi. Unga ko‘ra, tadbirkorlar ixtiyoriy ravishda 6 foiz stavkada QQS to‘lab, foyda solig‘idan ozod etilishi yoki amaldagi umumiy tartibda ishlashni davom ettirishi mumkin bo‘ladi.

Bu orqali kichik biznes uchun soliq hisoblash va to‘lash jarayoni soddalashadi, ma‘muriy yuk kamayadi, aylanmalarni yashirish va biznesni sun‘iy bo‘lishga rag‘bat pasayadi.

Davomi 2-beta

## TRANSPORT SOHASIDAGI YIRIK INVESTITSIYA LOYIHALARINING BORISHI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Transport infratuzilmasi iqtisodiyot tarmoqlarini o‘zaro bog‘lash, hududlar salohiyatini to‘liqlashga solish, aholi va biznes uchun qulaylik yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, mamlakatimizda avtomobil yo‘llari, aviatsiya, logistika va xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmogda.

Taqdimotda, avvalo, “Toshkent — Samarqand” muqobil avtomobil yo‘lini qurish loyihasi ko‘rib chiqildi. Ushbu yo‘lning uzunligi 282 kilometr bo‘lib,

Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarini bog‘laydi. Yo‘l I-a toifada, sement-beton qoplamali, har ikki yo‘nalishda uchta danarak tasmasi bilan quriladi. Loyihaviy tezlik soatiga 150 kilometrni tashkil etadi.

Loyiha doirasida 12 ta transport yechimi, 60 ta tunneli o‘tish joyi, 91 ta ko‘pri, 16 ta yo‘l o‘tkazgich, 258 ta drenaj inshooti va intellektual transport tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 12 ta terminal,

yo‘l bo‘yi infratuzilmasi va vazn o‘lchash tizimi tashkil qilinadi.

Salohiyatli investorlar bilan muzokaralar jarayonini jadallashtirish va qurilish ishlarini qisqa muddatlarda boshlash topshirildi.

Mamlakatimizda aviatsiya sohasida yangi ekotizimni shakllantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmogda.

Davomi 2-beta

## O‘zbekiston — xalqaro muloqot maydoni

Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlar Sudyalari kengashlari rahbarlarining to‘rtinchi yig‘ilishi nafaqat sud-huquq sohasidagi navbatdagi xalqaro muloqot, balki turkiy dunyo huquqiy tafakkurida yangi sahifa ochgan, adolat, qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi va inson qadri kabi konstitutsiyaviy qadriyatlar atrofida mushtarak mas‘uliyatni yanada kuchaytirgan muhim siyosiy-huquqiy voqea bo‘ldi. Mazkur anjuman turkiy davlatlar o‘rtasida konstitutsiyaviy nazorat va odil sudlov mexanizmlarini uyg‘unlashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning Turkiy davlatlar tashkiloti Sudyalari kengashlari rahbarlarining IV yig‘ilishi ishtirokchilariga yo‘llagan murojaati mazkur anjumaning siyosiy-huquqiy ahamiyatini yanada

yuksaltirib, uni nafaqat sohaviy muloqot, balki adolatli jamiyat, sud mustaqilligi, qonun ustuvorligi va inson qadri yo‘lida turkiy davlatlarning umumiy intilishlarini ifoda etuvchi muhim xalqaro maydon

Davomi 3-beta

## Soliq tizimida yangi bosqich: NAZORATDAN QULAYLIKKA QARATILGAN VAZIFALAR

Prezidentimizning yaqinda imzolangan “Soliq organlari faoliyatini institutsional jihatdan takomillashtirish va soliq ma‘muriyatchiligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda soliq tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan muhim siyosiy-iqtisodiy hujjat sifatida tarixga kirmogda. U soliq ma‘murchilgini modernizatsiya qilish bilan birga davlat va soliq to‘lovchi o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Davomi 2-beta

2026-yil 27-may, 107-son



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz.uz\_news

## KICHIK BIZNES UCHUN QULAY SHAROIT YARATISH BO'YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

### Boshlanishi 1-betda

QQS ma'muriyatchiligidagi murakkabliklar ham tahlil qilindi. QQSga o'tgan tadbirkorlarda hisobotlar soni 2 baravarga oshmoqda. 2025-yilda hisobotlarda xato aniqlangan soliq to'lovchilarning 77 foizi QQS to'lovchilarining hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bois, past xavf darajasiga ega tadbirkorlar uchun QQSning salbiy farqini avtomatik qaytarish, QQS to'lovchisi guvohnomasini vaqtincha to'xtatib turish tartibini bekor qilish, import bo'yicha majburiy QQSga o'tish amaliyotini qayta ko'rib chiqish va bank hisobraqamlarini ochish jarayonini avtomatlashtirish taklif etildi.

Kichik biznes subyektlariga nisbatan ma'muriy bosimini kamaytirish maqsadida tadbirkorga xatolarini mustaqil tuzatish imkoniyatini berish hamda soliq xavfi 500 million so'mgacha bo'lgan holatlarda soliq audit, 100 million so'mgacha bo'lganda esa sayyor soliq tekshiruvini o'tkazmaslik tartibini joriy etish taklif qilindi.

Umumiy ovqatlanish va mehmonxona xizmatlari sohasida ham bir qator yengilliklar nazarda tutilgan. Jumladan, alkogol va tamaki mahsulotlarini naqd shaklda realizatsiya qilishga ruxsat berish, QQSning bir qismini qaytarishda naqd pulsiz tushum ulushiga doir talabni bekor qilish, ayrim xodimlarni soddalashtirilgan tarzda rasmiylashtirish taklif qilindi.

Ushbu choralar 600 mingdan ortiq kichik biznes subyekti uchun qonuniy o'sish imkoniyatini oshirishi kutilmoqda. Soliq bazasi shaffoflashishi hisobiga byudjerga yiliga kamida 2 trillion so'm qo'shimcha tushum tushishi prognoz qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu takliflarni ma'qullab, kichik biznesga qulay va adolatli sharoit yaratish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish hamda raqamlashtirish orqali tadbirkorlarni faoliyatini kengaytirishga rag'batlantirish va ishonchini mustahkamlash yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA

## KO'MIR SANOATIDA BOZOR MEKANIZMLARI JORIY ETILADI

### Boshlanishi 1-betda

Amaldagi tartibda narxlarini ma'muriy belgilash ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy barqarorligiga, yangi investitsiya kiritish va qazib chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatayotgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan 2026-yil 1-iyundan boshlab ko'mir narxlarini davlat tomonidan belgilash amaliyotini bekor qilish hamda ko'mirni davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli tovarlar strategik turlari ro'yxatidan chiqarish taklif qilindi. Bunda ko'mir narxi talab va taklif asosida shakllanadi, iste'molchilarga birja savdolari orqali sotiladi.

Ushbu yondashuv sohada ochiq raqobat muhitini yaratish, barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit ta'minlash, ishlab chiqaruvchilarni qo'shimcha hajm va sifat uchun rag'batlantirishga xizmat qiladi. Issiqlik elektr stansiyalari va yirik iste'molchilar ko'mirni "taklif so'rovini" tartibi asosida, hisobot davridagi o'rtacha birja narxlarida xarid qilishi mumkin bo'ladi.

Aholi va budjet muassasalarini ko'mir bilan barqaror ta'minlash uchun alohida mexanizm joriy etiladi. Ko'mir qazib chiqaruvchilar mahsulotini birja savdolarida alohida savdo maydonchasi orqali yetkazib beruvchi tadbirkorlar sotadi. Tadbirkorlar omborxonasi, texnikalari va soliq reytingi kabi mezonlar asosida elektron tizim orqali tanlanadi.

Respublika bo'yicha aholi va budjet tashkilotlariga yetkazib beriladigan ko'mir

narxlarini o'rnatishda tafovutni bartaraf etish maqsadida temir yo'lda tashish yagona tarif asosida amalga oshiriladi. "Ko'mir ta'minot" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati tugatilib, hududlardagi 96 ta ko'mir ombori va texnikalar auktsion savdolari orqali sotiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mycoal.uz portali orqali ko'mir sotib olingan Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga joriy yil iyun-dekabr oylarida 600 ming so'mgacha bir martalik moddiy yordam ajratiladi. Bu chora bozor mexanizmlariga o'tish sharoitida ehtiyojmand oilalarni mazill himoya qilishga qaratilgan.

Import ko'mir sifati va ekologik xavfsizligi bo'yicha ham yangi talablar belgilanadi. Respublika hududiga olib kiriladigan ko'mirning olingugurt miqdori, kaloriyasi va boshqa ko'rsatkichlariga talablar ishlab chiqiladi. Belgilangan ekologik va sifat talablariga javob bermaydigan import ko'mirdan respublika hududida foydalanish va uni sotish taqiqlanadi. Kelgusida ko'mir importi faqat temir yo'l orqali amalga oshiriladi.

Taqdimotda Nishbosh ko'mir konini o'zlashtirish investitsiya loyihasi haqida ham axborot berildi. Ushbu loyihaning umumiy xarizasi 233 million tonna, yillik qazib chiqarish quvvati 10 million tonnani tashkil etadi. Qiymati 494 million dollar bo'lgan loyiha doirasida 880 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, ushbu kon negizida umumiy quvvati 1,4 gigavatt bo'lgan yangi issiqlik elektr

stansiyasini qurish taklif qilindi. Loyihaga ko'ra, 1,3 milliard dollar investitsiya jalb qilinib, har biri 350 megavatt quvvatga ega 4 ta energoblok ultra yuqori kritik texnologiyalar asosida quriladi.

Qurilish davrida 1500 ta, loyiha to'liq ishga tushgach, 310 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Stansiya yiliga o'rtacha 9,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi, 2 milliard kub metr tabiiy gazni tejash imkonini berishi kutilmoqda.

Shuningdek, taqdimotda tog'-kon sanoatida mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Xorijiy investitsiya loyihalarida mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish, yirik kombinatlar va tarmoq korxonalarini ehtiyojlarini birlashtirish, uzoq muddatli shartnomalar asosida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Tahlillarga ko'ra, tog'-kon sanoatida import o'rni bosish salohiyatini 2,1 milliard dollargacha yetkazish imkoniyati mavjud. Bu, avvalo, texnika, ehtiyoj qismlar, kimyoviy reagentlar va yirik agregatlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga ta'minlanadi.

Shu munosabat bilan 2027-2030-yillarga mo'ljallangan tog'-kon sanoatida mahalliyashtirish strategiyasini ishlab chiqish topshirildi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA

## TRANSPORT SOHASIDAGI YIRIK INVESTITSIYA LOYIHALARINING BORISHI KO'RIB CHIQILDI

### Boshlanishi 1-betda

Xususan, hududlardagi 7 ta xalqaro aeroport zamon talablariga asosida rekonstruksiya qilinayapti. Mo'ynoq, Qo'qon, Zomin, Shahrisabz, Sariyoy, So'x tumanlarida yangi aeroportlar barpo etilib, ularning soni 18 taga yetkazildi.

Xususan, Navoiy xalqaro aeroporti faoliyatini loyihaviy boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish, uning tijorat mustaqilligini oshirish ishlari olib borilmoqda. Unga mahalliy va xorijiy aviakompaniyalar bilan yo'lovchi va yuk tashish, tranzit hamda texnik qo'nishlar bo'yicha mustaqil muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish huquqi berilgan.

2030-yilga borib, aeroportda parovozlar sonini 2,3 barabarga oshirib, yiliga 7 mingga, yo'lovchi tashish hajmini 150 ming nafarga, yuk tashishni esa 45 ming tonnaga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, aeroport hududida havo kemalariga texnik va tijorat xizmatlari

ko'rsatishga ixtisoslashgan "porto-franko" erkin zonasi tashkil etiladi.

Taqdimotda Yangi Toshkent xalqaro aeroportini qurish loyihasi ko'rib chiqildi.

Aeroport yiliga 20 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ladi. Yo'lovchi terminali maydoni 208,4 ming kvadrat metrga teng, 169 ta havo kemasi turargohi, har biri 4 kilometrdan bo'lgan 2 ta uchish-qo'nish yo'lagi barpo etiladi.

Hozirga qadar xalqaro moliya institutlari talabari asosida ekologik va ijtimoiy ta'sir baholash ishlari o'tkazildi. Loyiha hududida kanal, kollektor va elektr tarmoqlarini ko'chirish ishlari boshlangan. Ayni paytda loyiha va pudrat tashkilotlari bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Fuqaro aviatsiyasi korxonalarini aviayoqilg'i bilan ta'minlash masalasi ham ko'rib chiqildi.

Aeroportlardagi yoqilg'i quyish majmualarining umumiy sig'imi 49 ming tonnani tashkil etadi. 2030-yilga qadar mahalliy

aviayoqilg'i ishlab chiqarish hajmini yiliga 600 ming tonnaga, aviayoqilg'i saqlash quvvatlarini esa 80 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Bu maqsadda Navoiy, Andijon, Buxoro, Urganch va Yangi Toshkent xalqaro aeroportlarida yangi saqlash quvvatlarini barpo etiladi.

Yoqilg'i saqlash va quyish jarayonlarini xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o'tkazish zarurligi qayd etildi. Yoqilg'i quyish majmualarini boshqarish jarayonlari joriy yilda to'liq raqamlashtirilishi, aeroportlar yoqilg'i quyish majmualari faoliyatida texnologik jarayonlar talablariga rioya etilishi usidan tizimli davlat nazorati o'tatilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari transport infratuzilmasini rivojlantirishda loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, qurilish sifati, xavfsizlik talabari va aholi uchun qulaylik asosiy mezon bo'lishi zarurligini ta'kidladi hamda tegishli ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

## HAYIT — MILLIY VA DINIY QADRIYATLARIMIZ TARANNUMI



Shayx Nuriddin XOLIQAQZAR, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

### Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning shu yil 20-maydagi "Muborak Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida"gi qaroriga binoan bu yilgi Qurbon hayiti "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezu g'oyani chuqur qor topirishda, insonparvarlik, saxovat, shukronalik va bag'rikenglik kabi olijanoq fazilatlarini yanada boyitishda muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Darhaqiqat, bugin yurtimizda kechayotgan keng ko'lamli islohotlar, yangilanishlar, diniy-ma'rifiy sohaga, milliy qadriyatlarini tiklashga qaratilayotgan yuksak e'tibor yurtidoshlarimiz qalbidagi shukronalik hissini yanada oshirmoqda. Mamlakatimizda inson qadri ulug'lash, aholini ijtimoiy himoya qilish, jamiyatda mehroqibat, saxovat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanadi. Bu xayrli tamoyillar, ayniqsa, xalqimizga xos ezu fazilatlarini mujassam etgan muborak kunlarda yanada yorqin namoyon bo'lmoqda.

Shu yil Ramazon oyida Prezidentimiz tomonidan davlatimiz hamyurtlarimizning hayotini yanada yaxshilash, minglab ko'ngillarga quvonch olib kirish maqsadida bir trillion so'mdan ziyod mablag' ajratilib, imkoniyati cheklangan yuzlab, minglab bemorlarning jarrohlik amaliyotlariga, uy-joylarini tiklashiga, dillarni shod etishga sarflangan.

Bunday xayrli ishlarimiz uzviy davomi sifatida muborak Qurbon hayiti ayymoi arafasida davlatimiz rahbari ehtiyojmand aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada qo'llab-quvvatlash yuzasidan yangi taqdimot bilan tanishib, 690 milliard so'm ajratilishini

ma'qullagani yurtidoshlarimizni yanada to'liqlantirdi.

Xalqimizga ko'rsatilayotgan bunday tizimli g'amxo'rliklar doirasida nihoyatda ulkan muruvvat tadbirlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Xususan, bu mablag'lar hisobidan og'ir xastalikka chalingan 10 ming bolada murakkab jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi. Shuningdek, onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo'yilgan 2 mingdan ziyod bemorni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, davolash va jarrohlik amaliyotini o'tkazish hamda 300 nafardan ortiq og'ir bemorda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyotini o'tkazish xarajatlarini to'liq qoplab beriladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, yetim va otana qaramog'idan mahrum, shuningdek, Vatana sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan qahramonlarimizning 8 mingdan ziyod farzandi alohida e'tiborga olinib, ularning omonat hisobvaraqlariga 200 AQSH dollari miqdorida pul o'tkazib beriladi.

Hududlardagi 500 ta masjidda zamonaviy tahoratxonalar qurilishi, ta'mirlanishi, qabrstonlarning obod qilinishi ham ushbu ezu ishlarimizning uzviy davomidir.

Alloh taolo qurbi yetgan, moliyaviy imkoniyati bo'lgan mo'min-musulmonlarni Qurbon hayiti kuni qurbonlik qilishga buyurgan. Qurbonlik go'shtining muhtojlar, yetim-yesiralar, kam ta'minlanganlar va bemorlarga ulashilishi saxiyylik, shukronalik va jamiyatda tenglik, bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan ulkan ibrat maktabidir.

Ha, hayit ming yillar davomida shakllangan milliy va diniy qadriyatlarimiz tarannumidir. U bizni nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham poklaydi, qalbimizda muhabbat, insoniylik va mehroqibat urug'larini ekan holda hayotga, atrofimizdagi insonlarga yaxshilik nazari bilan qarashga undaydi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda har yil 15 mingdan ziyod vatandoshimiz muborak haj safariga bormoqda. Bu yil yana bir misli ko'rilgan xayrli tashabbus amalga oshirildi — Vatana va xalq manfaatini yo'lida siddiqdigan xizmat qilgan mehnat faxriylari, ularning oila a'zolari, mahalla faollari, nuroniyalar hamda kam ta'minlangan oilalar vakillaridan iborat 100 nafar vatandoshimiz ilk bor "Prezident hojisi" sifatida davlat tomonidan haj safariga yuborildi.

Prezidentimiz biz bilan telefon orqali muloqot qilib, ziyoratchilarimizning sog'lig'i, kayfiyati va ibodatlarini bajarishi uchun yaratilgan tashkiliy ishlar bilan shaxsan qiziqqan dunyoda juda noyob hodisa sifatida barcha hojilarimizni cheksiz darajada mamnun etdi.

## Shukrona

Qizim Sadiyaxon Avazova ikki yarim yoshda. Unga shifokorlar qo'l-oyoq barmoqlarining rivojlanishida ortda qolishi tashxisini qo'ygan edi. Albatta, farzandning xastaligi ota-ona uchun juda og'ir holat. Shu kunga qadar ushbu kasallikka qarshi kurashib kelyapmiz. Lekin bu turdagi xastalik murakkab jarrohlik amaliyotini talab qilarkan. Shuning uchun boshi berk ko'chaga kirib qolgandek edik go'yo.

Shukr, Qurbon hayiti arafasida viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasidan mas'ullar qo'ng'iroq qilib, qizimda jarrohlik amaliyotini o'tkazish uchun tibbiy vaucher berilganini aytdi. Bundan barchamiz juda xursand bo'ldik. Quvonchimiz cheksiz. E'tibordan chetda emasligimiz uchun Prezidentimizdan nihoyatda minnatdormiz. Qurbon hayiti arafasida vaucher oilmaziga katta tufha bo'ldi.

Qizimni sog'lom hayotga qaytarish uchun juda ko'p harakat qildik va imkoniyatlar izladik. Bu tufha orzumizning amalga

oshishiga imkoniyat eshiklarini ochdi. Shu yil 26-may kuni Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialida mutaxassislar ko'rigidan o'tdik. Jarrohlik amaliyoti uchun zarur tekshiruvlar o'tkazildi. Barcha laboratoriya tahlillari ijobiy chiqdi. Shundan so'ng jarrohlik amaliyotiga kirishildi. Qizimning sog'lom hayotga qaytishiga ishonchimiz ortdi. Muolaja uchun zarur barcha dori-darmon bepul ekan.

To'g'risi, xursandligimni so'z bilan

Bugun saudiyalik mutasaddilar ham yurtimizda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar — Imom Buxoriy majmuasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy-ma'rifiy majmuasi kabi muazzam maskanlar foydalanishga topshirilganini yuqori baholab, davlatimiz rahbarining ishlarini olqishlamoqdalari.

Imom Termiziy bobomiz rivoyat qilgan hadisi sharifda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Duolarning eng yaxshisi arafa kuni qilingan duodir", deb xushxabar berganlar. Duolar shakhs ijobat bo'ladigan manzil — Arafot maydonida minglab xatmi Qur'ondan so'ng o'zbekistonlik 15 ming hoji qo'lini duoga ochdi, avvalo, yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar uchun Prezidentimiz, yurtidoshlarimiz haqida duolar qildi, yurtimiz farovonligi yanada ziyoda bo'lishini Yaratgandan so'radi.

Davlatimiz rahbari hayotda ko'pni ko'rgan, duogo'y hojilarimiz yurtga qaytgach, islom ma'rifati va sog'lom e'tiqodni xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga teran yetkazishda, mahallalarda mehroqibat, hamjihatlik va ma'naviy muhitni mustahkamlashda namuna bo'lishiga katta ishonch bildirgan edi.

O'zbekistonlik hojilar ushbu e'zoz va hurmatga javoban yurtga qaytganlaridan keyin "ma'naviyat targ'ibotchisi" sifatida yangi va xayrli tashabbuslarni izchil amalga oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yidilar. Yoshlarni ilm egalashga, kasb-hunar o'rganishga davlat etib, o'g'il-qizlarimizni ona Vatanga sadoqatli, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga bor kuch-g'ayratlarini safarbar etadilar, insha'lloh.

Ushbu muborak kunlarda qalblarimizdan gina-kudratlarni chiqarib tashlash, arazlashgan, o'zaro uzoqlashgan do'st-birodarlar, qarindosh-urug'lar bilan quchoq ochib qarashish, silai rahm qilish dimimizning go'zal tavsiyalaridandir. Nuroniy otaxon va onaxonalarimizni, bemor va yolg'iz keksalarni ziyorat qilib, ularning duolarini olish xonadonlarimizga, butun yurtimizga qut-baraka olib keladi.

Siz azizlarni ulug' ayym — Qurbon hayiti bilan yana bir bor muborakbod etaman. Haq taolo barchamizga diniy va milliy qadriyatlarimizga muvofiq hayot kechirishni nasib aylasin! Ibadatlarimiz, qurbonliklarimiz va xolis xayr-ehsonlarni O'z dargohida husni qabul aylasin. Yurtimizni tinch, osmonimizni musaffo, rizqimizni mo'l-ko'l, xalqimizni hamisha saodatli qilsin!

Makka mukarrama

## E'TIBORDAN BEHAD MAMNUMIZ

### Shukrona

Qizim Sadiyaxon Avazova ikki yarim yoshda. Unga shifokorlar qo'l-oyoq barmoqlarining rivojlanishida ortda qolishi tashxisini qo'ygan edi. Albatta, farzandning xastaligi ota-ona uchun juda og'ir holat. Shu kunga qadar ushbu kasallikka qarshi kurashib kelyapmiz. Lekin bu turdagi xastalik murakkab jarrohlik amaliyotini talab qilarkan. Shuning uchun boshi berk ko'chaga kirib qolgandek edik go'yo.

Shukr, Qurbon hayiti arafasida viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasidan mas'ullar qo'ng'iroq qilib, qizimda jarrohlik amaliyotini o'tkazish uchun tibbiy vaucher berilganini aytdi. Bundan barchamiz juda xursand bo'ldik. Quvonchimiz cheksiz. E'tibordan chetda emasligimiz uchun Prezidentimizdan nihoyatda minnatdormiz. Qurbon hayiti arafasida vaucher oilmaziga katta tufha bo'ldi.

Qizimni sog'lom hayotga qaytarish uchun juda ko'p harakat qildik va imkoniyatlar izladik. Bu tufha orzumizning amalga

oshishiga imkoniyat eshiklarini ochdi. Shu yil 26-may kuni Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialida mutaxassislar ko'rigidan o'tdik. Jarrohlik amaliyoti uchun zarur tekshiruvlar o'tkazildi. Barcha laboratoriya tahlillari ijobiy chiqdi. Shundan so'ng jarrohlik amaliyotiga kirishildi. Qizimning sog'lom hayotga qaytishiga ishonchimiz ortdi. Muolaja uchun zarur barcha dori-darmon bepul ekan.

To'g'risi, xursandligimni so'z bilan

ifodalashga oziyman. Chunki qizim sog'ayish arafasida. Endi oilaviy tashvishimiz ariydi, mushkulimiz oson bo'ladi. Shunday qilib, Qurbon hayitini qo'shaloq bayram sifatida kutib oldik.

Ota-ona uchun farzandlarining sog'lig'idan ortiq baxt yo'q. Buni o'zimizda his qilim. Xalqimizning mehroqibat, o'zaro hurmat va hamjihatlik singari ezu fazilatlarining amalda guvohi bo'ldim. Buning uchun davlatimiz rahbari va tibbiyot muassasasidagi jonkuyar shifokorlarga rahmat aytaman.

Turli xastalikka qarshi uzoq yillar kurashib kelayotgan insonlarga ko'maklashish an'anasi faqat bizning yurtimizda bo'lsa kerak. Shunday saxovatli xalqimiz borligi va tinch Vatanda yashayotganimizga shukr qilamiz. Farzandim sog'lom hayotga qayta, albatta, el koriga yaraydigan munosib avlod qilib tarbiyalayman.

Nigora ISAYEVA  
Navoiy shahri

## Sharh

## NAZORATDAN QULAYLIKKA QARATILGAN VAZIFALAR

### Boshlanishi 1-betda

Bugun jahon iqtisodiyotida raqobat kuchayib, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik asosiy mezonaga aylanib borayotgan bir sharoitda soliq tizimini isloh qilish har qanday mamlakat taraqqiyotining muhim omilidir. O'zbekistonda ham soliq sohasida keng qamrovli islohotlar o'tkazilib, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va adolatli soliq muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur farmon ana shu islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, soliq tizimini xalqchil, raqamli va samarali tizimga aylantirish maqsad qilingan. Xususan, 2030-yilga qadar Jahon banking "Business Ready" reytingida soliq yo'nalishi bo'yicha birinchi darajaga chiqish vazifasining belgilanishi mamlakatimiz oldiga qo'yilgan ulkan strategik maqsadlardir. Bu O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro maydonda

raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, soliqlarni ixtiyoriy to'lash ulushini 98 foizga yetkazish belgilangan ham davlatning soliq to'lovchilarga nisbatan ishonch va hamkorlik tamoyilini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Ilgari asosiy e'tibor nazorat va jazoga qaratilgan bo'lsa, endi profilaktika, tushuntirish va qulay xizmatlar orqali soliq intizomini ta'minlash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu xalqimizning soliq tizimiga ishonchi ortib, sohada inson manfaatini va adolat mezonlarini kuchayib borayotganini anglatadi.

Famondagi eng muhim jihatlardan biri raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining soliq ma'murchiligiga keng joriy etilishidir. Endi soliq organlari faoliyati zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinib, inson omilini kamaytirish orqali korupsiya va ortiqcha byurokratiyaning



To'rabek TO'RAYEV, Soliq qo'mitasi boshqarma boshlig'i

oldi olinadi. Ayniqsa, "Compliance Risk Management" tizimining takomillashtirilishi

tadbirkorlar uchun sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Huquqiy-me'yoriy hujjat doirasida xavflarni toifalash hamda xavflarni ko'rib chiqish (Risk Review) axborot tizimlarining joriy etilishi soliq ma'muriyatchiligida mutlaqo yangi yondashuvni shakllantiradi. Mazkur tizimlar soliq to'lovchilar faoliyatidagi ehtimoliy xavflarning oldini oladi. Huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va profilaktik choralarini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, bu mexanizm orqali insofli va qonunga itoatkor tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, soliq nazoratini esa adolat va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etish imkoniyati yanada kengayadi.

Shuningdek, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlariga dastlabki olti oy davomida hisobot yuborish xizmati bepul ko'rsatilishi davlatning biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati yanada oshganini ko'rsatadi. Bu kabi yengilliklar tadbirkorlar uchun katta imkoniyat bo'lib, yangi

biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Famonda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini baholash uchun "mijozlarga yo'naltirilgan indeks" joriy etilishi ham aholi va tadbirkorlarning fikri davlat uchun katta ahamiyat kasb etayotganini anglatadi. Endi soliq organlari faoliyatiga baho berishda faqat statistik ko'rsatkichlar emas, balki fuqarolarning rozilik darajasi ham asosiy mezonlardan biri bo'ladi.

**Qishloq xo'jaligi, qurilish, neft-gaz va boshqa sohalarda soliq hisobotlarining proaktiv shaklda avtomatik yuritilishi esa ortiqcha qog'ozbozlikning kamayib, soliq to'lovchilar uchun vaqt va mablag' tejashida juda muhim. Bu "davlat xalq uchun xizmat qilishi kerak" degan tamoyilning amaliy ifodasidir.**

Huquqiy-me'yoriy hujjatda kadrlar siyosatiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Soliq qo'mitasi huzurida Soliq oliy maktabi va tadqiqot markazlarining tashkil etilishi sohada yuqori mal

O'zbekiston – xalqaro muloqot maydoni

# YANGI O'ZBEKISTONNING HUQUQIY TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK

2026-yil 27-may, 107-son



**Mirzo-Ulug'bek ABDUSALOMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyaviy sudi raisi,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
yurist

**Boshlanishi 1-betda**

Anjumanning qadimi Samarqand zaminida o'tkazilgan ham chuqur ramziy ma'no'ga ega. Samarqand bu — shunchaki tarixiy shahar emas. U asrlar davomida ilm, ma'rifat, davlatchilik tafakkuri, bag'rikenglik va xalqlar o'rtasidagi muloqot markazi bo'lib kelgan ulug' maskandir. Bugun esa Samarqand yangi O'zbekistonning ochiq tashqi siyosati, xalqaro tashabbuskorligi, turkiy davlatlar va nufuzli turkiy tashkilotlar bilan huquqiy hamkorligi hamda adolati jamiyat barpo etishga qaratilgan ezuq intilishlarining yorqin ifodasiga aylangan.

Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston Sudyalar kengashlari rahbarlari boshchiligidagi delegatsiyalar, shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi ishtirok etgani tabirning xalqaro nufuzi va amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Muloqot davomida xorijiy mehmonlar yangi O'zbekistonda Prezidentimiz rahbarligidagi keng ko'lami islohotlar, xususan, sud-huquq sohasidagi yangilanishlar, qonun ustuvorligini ta'minlash, sud mustaqilligini mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilish borasidagi izchil sa'y-harakatlarni yuksak e'tirof etdi.

Shu bilan birga, xorijiy delegatsiyalar Samarqand shahridagi bunyodkorlik ishlari, tarixiy va ma'naviy merosi asrab-avaylash bilan zamonaviy taraqqiyot uyg'unlashtirilayotganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidladi. Ayniqsa, Imom Buxoriy majmuasi va "Boqiy shahar" kabi noyob maskanlar mehmonlarda katta taassurot qoldirib, yangi O'zbekistonda milliy meros, ma'rifat, zamonaviy shaharsozlik va xalqaro mehmondo'stlik madaniyati yuksak darajada namoyon bo'layotganini yaqqol ko'rsatdi.

Bu e'tiroflar shundan dalolat beradiki, yangi O'zbekistonda islohotlar bugun mamlakatimiz ichki taraqqiyotining muhim omili bo'lib qolmay, xalqaro huquqiy hamjamiyat, turkiy davlatlar va nufuzli tashkilotlar tomonidan ham katta qiziqish va hurmat bilan qabul qilinmoqda. Zero, islohotning eng katta kuchi uning inson hayotida, jamiyat tafakkurida va xalqaro maydonda uyg'unlashgan insonchilik bilan o'chanadi.

**Davlat qudratining asosi**

Bugungi dunyoda davlatlarning nufuzi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, geosiyosiy imkoniyatlar yoki tashqi siyosiy faollik bilan o'lchanmaydi. Har bir davlatning haqiqiy qudrati, avvalo, uning qonun ustuvorligiga sadoqati, inson huquqlarini himoya qilish salohiyati, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash darajasi va adolati hayotda amaliy qadriyatga aylantira olish bilan belgilanadi. Chunki adolat bor joyda insonchilik bo'ladi, insonchilik bor joyda barqarorlik yuzaga keladi. Barqarorlik bor joyda esa taraqqiyot, farovonlik va insonning erangi kunga umidi mustahkamlanadi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining mohiyati ham aynan davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida muvozanatni saqlash va qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlash orqali ushbu barqarorlikni huquqiy jihatdan kafolatlashdan iborat.

Prezidentimiz rahbarligida yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi, mazmunan teran va tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Bugun mamlakatimiz ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosati orqali xalqaro maydonda insonchilik hamkor, tashabbuskor davlat va mintaqaviy muloqot markazi sifatida tobora mustahkam o'rin egallamoqda. Eng muhimi, davlat siyosatining markaziga umumiy shiorlar emas, balki inson, uning qadri, huquqlari, erkinliklari va adolatga bo'lgan ishonchi qo'yilmoqda.

Yangi O'zbekiston islohotlarining eng muhim falsafasi ham shunda: davlat inson uchun xizmat qilishi, qonun insonni himoya qilishi, sud esa inson uchun adolati amalda qaror toptirishi kerak. Bu oddiy g'oya emas. Bu bugungi milliy taraqqiyotimizning ma'naviy-siyosiy tayanchi, huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng muhim mezon, xalqchil islohotlarning hayotiy mazmunidir. Shu ma'noda, sud-huquq sohasidagi islohotlar yangi O'zbekistonda yangilanishlarning strategik yo'nalishlaridan

biriga aylandi. Zero, sudga ishonch davlatga ishonchdir, qonunga ishonch kelajakka ishonchdir, adolatga ishonch esa jamiyatning ma'naviy birligi, siyosiy barqarorligi va taraqqiyotga ishonchning eng mustahkam asosidir.

Bugun mamlakatimizda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, sudyalarni daxlsizligini kafolatlash, sud ishlarini yuritishda ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish, fuqarolarning odil sudlovga ishonchini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu jarayonda sud mustaqilligi faqat huquqiy norma sifatida emas, balki demokratik davlatchilikning hayotiy sharti, inson huquqlarining eng muhim kafolati va jamiyatda adolati ta'minlashning bosh mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu mexanizmning uzluksiz ishlashida normativ-huquqiy hujjatlarining konstitutsiyaviyligini nazorat qiluvchi Konstitutsiyaviy sudning roli muhim.

**Globallashuv sharoitida konstitutsiyaviy odil sudlov**

Bugungi global davr sud hokimiyati oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, transchegaraviy munosabatlar, global huquqiy jarayonlar va inson huquqlarini himoya qilishning yangi mezonlari sud tizimida yanada yuqori ma'naviyat, chuqur bilim, xolislik va zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda. Bunday sharoitda sud hokimiyati faqat nizolarni hal etuvchi tizim emas. U Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlovchi, inson huquqlarini amalda himoya qiluvchi, davlat va jamiyat o'rtasida ishonchni mustahkamlovchi muhim konstitutsiyaviy hokimiyat tarmog'idir.

Konstitutsiyaviy nuqtayi nazardan qaraganda, sud mustaqilligi masalasi faqat sud tizimining ichki tashkiliy masalasi emas. U Konstitutsiya ustuvorligi, inson huquqlarining real himoyasi, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasidagi huquqiy muvozanat va jamiyatning qonunga bo'lgan ishonchi bilan bevosita bog'liq strategik masaladir. Sud mustaqilligi qanchalik mustahkam bo'lsa, Konstitutsiya ustuvorligi shunchalik hayotiy bo'ladi. Konstitutsiya ustuvorligi hayotiy bo'lsa, inson huquqlari shunchalik ishonchli himoya qilinadi.



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida mustahkamlangan barcha sohalardagi islohotlarga, xususan, sud-huquq sohasidagi o'zgarishlarga chuqur konstitutsiyaviy mazmun bag'ishlamoqda. Bu yangi davrning yangi huquqiy ruhi, inson qadriyatini yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosatining oliy ifodasidir.

Shu o'rinda buyuk ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish ham tabiiy. Chunki adolat, qonunga hurmat, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch g'oyalari xalqimiz davlatchilik tafakkurida azaldan markaziy o'rin egallab kelgan. Milliy davlatchilik tariximizda adolat davlatning bezagi emas, uning qudrati va barqarorligini ta'minlovchi asos sifatida qaralgan.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy o'zining fozil jamiyat haqidagi qarashlarida davlatni faqat hokimiyat vositasi sifatida emas, balki inson kamoloti, ma'naviy yetuklik va umumiy farovonlikka xizmat qiladigan ijtimoiy tizim sifatida talqin etadi. Forobiy ta'limotida jamiyatning barqarorligi bilim, axloq, adolat va oqilona boshqaruv bilan chambarchas bog'liq. Bugungi sud-huquq islohotlari ham aynan shu ma'noda inson kamoloti, huquqiy ong, qonunga hurmat va adolati boshqaruv madaniyatini shakllantiradi.

Bujihatdan qaraganda, yangi O'zbekistonda sud-huquq islohotlari zamonaviy huquqiy ehtiyojlar bilan birga xalqimiz davlatchilik merosidagi eng ezuq g'oyalarning amaliy davomidir. Fozil jamiyat haqidagi qarashlar bugun adolati jamiyat, inson qadri, huquqiy davlat va qonun ustuvorligi tushunchalari orqali yangi tarixiy mazmun kasb etmoqda.



Konstitutsiyaviy sud faoliyati esa ushbu tarixiy an'analarni zamonaviy konstitutsionalizm prinsiplari bilan uyg'unlashtirish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari daxlsizligini kafolatlashga xizmat qiladi.

**Sudyalar kengashlari va sud hokimiyati mustaqilligining amaliy kafolatlari**

Samarqanddagi nufuzli xalqaro anjumanning yana bir muhim jihati shundaki, u sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashda Sudyalar kengashlari institutining o'rni yanada ravshan ko'rsatdi. Bunday tuzilmalar zamonaviy huquqiy davlatda sudyalarni korpusini shakllantirish, sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashda xolislikni ta'minlash, sudyalik kasbining nufuzini oshirish, kasbiy mas'uliyat va odob mezonlarini mustahkamlashda muhim kafolat vazifasini bajaradi.

Sudyalar kengashlariga faqat kadrlar masalasi bilan shug'ullanuvchi organ sifatida

**Raqamlashtirish va innovatsiyalar afzalligi**

Turkiy davlatlarni umumiy tarix, mushtarak til, madaniyat, ma'naviy yaqinlik va ezuq an'analar birlashtirib turadi. Biroq bugungi davrda bizni faqat tarixiy xotira emas, balki kelajak uchun umumiy mas'uliyat ham birlashtirmoqda. Turkiy dunyoda hamkorlik endilikda faqat madaniy-ma'naviy yaqinlik bilan cheklanmay, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, aqli boshqaruv, innovatsion rivojlanish va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi raqamli yechimlar kabi zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari bilan uzviy bog'lanmoqda. Bu borada Prezidentimiz rahbarligida yangi O'zbekistonda islohotlar ham umumiy taraqqiyot ruhi bilan to'la hamohangdir. Xususan, davlatimiz rahbarining 2025-yil 18-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni Konstitutsiyaviy sud faoliyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish, zarur tashkiliy-huquqiy ochiqliq, tezkorligi va natijadorligini oshirish yo'lida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur farmon doirasida Konstitutsiyaviy sud faoliyati samaradorligini oshirish, konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish, konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish jarayonini raqamlashtirish, shuningdek, zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar va zamonaviy infratuzilmalarni shakllantirish masalalari belgilangan davlatimiz rahbarining sud-huquq sohasini, xususan, konstitutsiyaviy odil sudlov tizimini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish borasidagi qat'iy siyosiy irodasini yaqqol namoyon etadi.

Farmonning ahamiyati shundaki, u Konstitutsiyaviy sudni faqat konstitutsiyaviy nazorat organi sifatida emas, balki raqamli davrda inson huquqlarini himoya qilishning zamonaviy konstitutsiyaviy kafolatlarini shakllantiruvchi muhim huquqiy institut sifatida yanada faollashtirishga xizmat qiladi. Demak, yangi O'zbekistonda konstitutsiyaviy odil sudlov zamonaviy texnologiyalar orqali bilan uyg'unlashmoqda, sud tizimi esa inson manfaatlariga yanada yaqinlashmoqda. Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud amaliyotiga sun'iy intellekt elementlarining joriy etilishi normativ-huquqiy hujjatlarining konstitutsiyaviyligini tekshirishda tahlil tezkorligi va yuqori aniqlikni ta'minlash imkonini bermoqda.

**Sudyalik odobi prinsiplari**

Sudyalik odobi masalasi ham har bir huquqiy davlat uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki sudya odobi faqat kasbiy xulq-atvor qoidalari emas. Bu sudyaning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning xolisligi, vazminligi, pokligi, inson taqdiriga hurmati va adolatga sadoqatini ifoda etuvchi muhim ma'naviy-huquqiy mezonidir. Sudyaning bilimi, tajribasi va huquqiy tafakkuri qanchalik yuqori bo'lmasin, uning faoliyatida xolislik, poklik, mas'uliyat, inson taqdiriga hurmat va qonunga sadoqat bo'lmasa, odil sudlovning haqiqiy mazmuni to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu bois, sudyalik odobi, sudya mustaqilligi va odil sudlov sifati bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Bu uch mezon uyg'un bo'lgan joyda sudga ishonch mustahkam bo'ladi, qonun ustuvorligi ta'minlanadi, inson qadri amalda ro'yobga chiqadi. Samarqand muloqoti aynan shu muhim haqiqatni yana bir bor tasdiqladi.


Darhaqiqat, Samarqandda bo'lib o'tgan mazkur nufuzli yig'ilish yakunlari bo'yicha Sudyalar odobining umumiy prinsiplari

to'g'risidagi o'zaro anglashuv memorandumini qabul qilgani anjumanning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Ushbu hujjatda turkiy davlatlarning milliy huquqiy an'analari, sudyalik kasbining yuksak maqomi va xalqaro standartlar inobatga olingan holda sudyalarning xulq-atvor mezonlari belgilangan, eng avvalo, sud hokimiyatiga bo'lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu memorandum turkiy davlatlar sud-huquq hamkorligi faqat tajriba almashish yoki rasmiy muloqot bilan cheklanib qolmayotganini, aksincha, adolat, xolislik, poklik, mas'uliyat va inson taqdiriga hurmat kabi umumiy qadriyatlarini amaliy hujjatlar orqali mustahkamlash bosqichiga ko'tarilayotganini yaqqol namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ham o'z qarorlarida doimiy ravishda sudyalarni mustaqilligi hamda odob-axloq qoidalarga qat'iy rioya qilinishi odil sudlovning ajralmas elementi ekanligini e'tibor qaratib keladi.

**Umumiy intilishlar ifodasi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining turkiy dunyo konstitutsiyaviy yurisdiksiyalari bilan hamkorligi ham izchil va mazmunan boyib bormoqda. Turkiy dunyo konstitutsiyaviy yurisdiksiyalari konferensiyasi — TURK-AY turkiy davlatlar konstitutsiyaviy odil sudlovi tarixida muhim voqea bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ushbu tuzilmaning ta'sischi a'zolaridan biri hisoblanadi.

TURK-AY doirasidagi hamkorlik konstitutsiyaviy nazorat sohasida ilg'or tajribalarni o'rganish, inson huquq va erkinliklarni ishonchli himoya qilish, konstitutsiyaviy qonuniyligni mustahkamlash hamda turkiy davlatlar o'rtasida umumiy huquqiy tafakkur va o'zaro ishonch muhitini



rivojlantirish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qilmoqda. Bu platforma turkiy davlatlar konstitutsiyaviy yurisdiksiyalari o'rtasidagi hamkorlikni mazmunan boyitish, ilg'or huquqiy tajribalarni o'rganish va konstitutsiyaviy odil sudlovning umumiy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasiga raislik qilayotgani yangi O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi nufuzi, tashabbuskorligi va konstitutsiyaviy islohotlar borasidagi amaliy natijalariga berilgan yuksak e'tirofdir. Mazkur Assotsiatsiya 22 ta davlatning konstitutsiyaviy yurisdiksiya organlarini birlashtirgan nufuzli tuzilma sifatida Osiyo mintaqasida konstitutsiyaviy odil sudlov, inson huquqlari sohalarda amaliy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu raislik, avvalo,

Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan inson qadri, Konstitutsiya ustuvorligi va adolati jamiyat g'oyalari asoslangan islohotlarni Osiyo miqyosida keng namoyon etish, shuningdek, O'zbekistonning huquqiy davlatchilik sohasidagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu raislik O'zbekiston uchun faqat xalqaro maqom yoki tashkiliy mas'uliyat emas. Bu mamlakatimizda kechayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning xalqaro e'tirofi, yangi O'zbekistonning huquqiy davlatchilik sohasidagi yuksalotlarining salohiyati va Konstitutsiyaviy sudning mintaqaviy hamda qit'aviy huquqiy muloqotdagi faol o'rni amaliy tasdiqidir.

Ayniqsa, joriy yil oktyabr oyida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasining VII Kongressi doirasida raqamlashtirish va sun'iy intellekt sharoitida konstitutsiyaviy adolat, sudya mustaqilligi, inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlashning zamonaviy konstitutsiyaviy kafolatlari kabi dolzarb masalalarni muhokama qilish nazarda tutilgani mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudining xalqaro huquqiy muloqotdagi faol o'rni yanada bir bor tasdiqlaydi. Bu Kongress nafaqat navbatdagi xalqaro tadbir, balki yangi O'zbekistonning konstitutsiyaviy islohotlar borasidagi amaliy natijalarini, raqamli davrda odil sudlovga yondashuvini va inson huquqlarini himoya qilishdagi zamonaviy qarashlarini xalqaro maydonda namoyon etadigan muhim siyosiy-huquqiy platforma bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, Samarqandda bo'lib o'tgan anjuman, TURK-AY doirasidagi hamkorlik, Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasidagi raislik va VII Kongressga tayyorgarlik yagona mintiqiy za'iflikni tashkil etadi. Bu za'iflikning markazida esa inson uchun adolat, Konstitutsiya ustuvorligi, sud mustaqilligi, qonunga hurmat va yangi O'zbekistonning xalqaro huquqiy nufuzini yanada yuksaltirish kabi ezuq maqsadlar tarbiyasi. Konstitutsiyaviy sudning ushbu xalqaro jarayonlardagi bevosita mas'uliyati davlatning xalqaro-huquqiy majburiyatlarini bajarishdagi muhim qadami sifatida baholanishi lozim.

Bugun O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi faolligi faqat ishtirok etish bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Mamlakatimiz tashabbus ko'rsatmoqda, yirik xalqaro anjumanlarning mazmuni va kun tartibini shakllantirmoqda, milliy islohotlar tajribasini jahon huquqiy hamjamiyatiga olib chiqmoqda. Eng muhimi, inson qadriyatini ulug'lashga qaratilgan islohotlarimiz umum-insoniy huquqiy taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashib, yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy nufuzi, huquqiy salohiyati va islohotchilik irodasini yanada yaqqol namoyon etmoqda. Ushbu asoslarning barqarorligi bevosita Konstitutsiyaviy sud tomonidan ta'minlanadigan konstitutsiyaviy nazorat va qonuniyligi muhiti bilan mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqandda bo'lib o'tgan mazkur nufuzli anjuman yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining xalqaro e'tirofi, turkiy davlatlar o'rtasidagi huquqiy hamkorlikning

yangi bosqichi va konstitutsiyaviy odil sudlov sohasidagi umumiy intilishlarning amaliy ifodasi bo'ldi.

Bugun mamlakatimizda adolat davlat siyosatining markaziy mezoniga, inson qadri islohotlarning bosh maqsadiga, Konstitutsiya ustuvorligi esa huquqiy taraqqiyotning mustahkam poydevoriga aylangan.

Eng muhimi, bu jarayonlarning barchasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hayotiy kuchini, siyosiy irodasini va xalqchil mohiyatini yana bir bor yaqqol namoyon etadi. Zero, adolati davlat, mustaqil sud, kuchli Konstitutsiya va inson qadriyatini ulug'lagan jamiyat — yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim huquqiy va ma'naviy asosidir. Ushbu asoslarning barqarorligi bevosita Konstitutsiyaviy sud tomonidan ta'minlanadigan konstitutsiyaviy nazorat va qonuniyligi muhiti bilan kafolatlanadi.



# SIFAT VA RAQOBAT MUHITIGA

## MOSLASHISH bular JSTning

### ASOSIY TALABLARIDIR

iqtidosiyotning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi uchun ham muhim asos desak, to'g'ri bo'ladi.

#### JSTga a'zolik jarayonidagi muhim davr

Davlatimiz rahbari tanishgan taqdimotda 2025-yil O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida eng faol va hal qiluvchi bosqichlardan biri bo'lgani qayd etildi. Mamlakatda yuritilayotgan ochiq iqtisodiyot siyosati, tashqi savdoni erkinlashtirish va keng ko'lamli islohotlar JSTga integratsiya jarayonini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Endi bu jarayon faqat tashqi savdo munosabatlarini tartibga solish emas, balki iqtisodiyotni xalqaro raqobat muhitiga moslashtirishning muhim mexanizmi aylanmoqda.

Taqdimotda ta'kidlanganidek, O'zbekistonning JSTga a'zolik bo'yicha ko'p tomonlama va ikki tomonlama muzokaralari sezilarli faollashdi. JST ishchi guruhining ikki yig'ilishi o'tkazilib, tashkilot a'zolariga 200 dan ortiq savol yuzasidan rasmiy javoblar hamda tashqi savdo sohasiga oid o'nlab hujjatlar taqdim etildi. Bu mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ochiqlik va shaffoflik



#### Tahlil

JSTga a'zo bo'lish xalqaro qoidalar va standartlarga moslashishni talab qiladi. Shu bois, tashqi savdodagi texnik va sanitariya talablarini xalqaro me'yorlarga uyg'unlashtirish

yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan uzoq muddatli strategik transformatsiyaning muhim qismi hisoblanadi.

ayrim mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa iqtisodiyotni sun'iy himoya qilish emas, balki uni real raqobat sharoitiga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

JST qoidalarini davlat subsidiyalari va proteksionist mexanizmlarni bosqichma-bosqich qisqartirishni talab qiladi. Ya'ni davlat qo'lloviga o'rganib qolgan ayrim tarmoqlarni yangi iqtisodiy muhitga moslashishga undaydi. Bu jarayonni faqat xavf sifatida baholash to'g'ri emas. Aksincha, u milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnologik yangilanish va samaradorlikni oshirish uchun muhim imkoniyat hamdir. Chunki bugungi global iqtisodiyotda samarasiz va eski boshqaruv tizimiga asoslangan ishlab chiqarish modellari uzoq muddat raqobatga bardosh bera olmaydi.

O'zbekistondagi jadal iqtisodiy islohotlar ayni shu transformatsiyaga tayyorgarlik vazifasini bajarmoqda. Oliy ta'limni transformatsiyalash, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellektga o'tish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik muhitini yangilash, logistika va infratuzilmani modernizatsiyalash, bank va soliq tizimi islohotlari kabi choralar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar startaplarini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy savdoni rivojlantirish kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, zamonaviy iqtisodiyotda davlat kuchi nafaqat resurslar, balki tez moslasha oladigan va innovatsion xususiy sektor bilan ham belgilanadi.

#### Toshgan daryo o'zan izlaydi

Bugungi global geoiqtisodiy o'zgarishlar sharoitida O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining kelgusida bir necha barobar o'sishi uchun mustahkam iqtisodiy asoslar mavjud. Ayniqsa, transport yo'laklari, energiya xavfsizligi, strategik mineral resurslar va sanoat xomashyolariga bo'lgan talabning ortishi mamlakat uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, tashqi savdo aylanmasining ikki karra o'sishi real iqtisodiy jarayon sifatida ko'rilmog'ya.

O'zbekiston tabiiy resurslar zaxirasi bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlardan biri. Mamlakat oltin, mis, uran, litiy va nodir metallar zaxiralari ega. Bugun "yashil iqtisodiyot" va yuqori texnologiyalar rivoji tufayli aynan shu resurslarga jahon bozorida talab keskin ortmoqda. Elektromobillar, akkumulyatorlar va raqamli texnologiyalar ishlab chiqarishda bu resurslar strategik ahamiyat kasb etadi. Talab va

ta'kid esa O'zbekiston eksport salohiyatini uzoq muddatli istiqbolda sezilarli oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, global logistika yo'laklari o'zgarishi O'zbekistonning ahamiyatini kuchaytirmoqda. Yevropa — Osiyo, Xitoy — Markaziy Osiyo — Yaqin Sharq va Transkaspiy transport yo'nalishlariga qiziqish ortib bormoqda. O'zbekiston ushbu yo'nalishlar markazida joylashgan davlat sifatida tranzit va logistika xabiga aylanish imkoniyatiga ega. "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li, Transaf'jon loyihasi va Kaspiy orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlari tashqi savdo hajmini yanada kengaytiradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda kuzatilayotgan akademik va ta'lim sohasidagi transformatsiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kelajak iqtisodiyotining asosiy kuchi inson kapitali hisoblanadi. Bugun ko'plab rivojlangan davlatlarda demografik qarish jarayoni kuchayib, mehnat resurslari qisqarib bormoqda. O'zbekiston esa yoshlar ulushi yuqori bo'lgan davlat sifatida katta strategik ustunlikka ega.

Endi asosiy masala ushbu demografik imkoniyatni yuqori malakali kadrlar, muhandislar, dasturchilar va texnologik fikrlaydigan avlodga aylantirish olishdir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, kelajak iqtisodiyoti zamirida yuqori muhandislik ishlanmalari, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar turishi lozim. Chunki dunyo iqtisodiyotida asosiy ustunlik endi xomashyo emas, balki ilm-fan, texnologiya va intellektual salohiyat bilan belgilanmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiy qudratning asosida aynan yuqori texnologiyali sanoat va innovatsion ishlab chiqarish tizimi turadi. Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya yoki Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, muhandislik maktabi, sanoat texnologiyalari va bilimli kadrlar bilan bog'liq bo'lgan.

Shu nuqtayi nazaridan, O'zbekistonda mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati, energetika uskunalar va raqamli texnologiyalar sohasida milliy ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Agar bu jarayon Jahon savdo tashkilotiga integratsiya va ochiq iqtisodiyot siyosati bilan uyg'un kechsa, O'zbekiston Markaziy Osiyoda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik industrial markazlardan biriga aylanishi ehtimoli ortadi.

Ochiq iqtisodiyot yangi talab va chaqiriqlarni ham yuzaga keltiradi. Ayrim tarmoqlarni modernizatsiyalash, raqobatbardoshlikni oshirish va texnologik yangilanishni tezlashtirish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Chunki global raqobat sharoitida eski boshqaruv usullari va past samaradorlikka asoslangan iqtisodiy modellar uzoq davom etmaydi.

Markaziy Osiyo davlatlariga endi faqat xomashyo eksport qiluvchi hudud sifatida emas, sanoat kooperatsiyasi, qo'shma ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari shakllanayotgan iqtisodiy makon deb qaralmoqda. Mintaqaviy barqaror o'sish mintaqa davlatlari o'rtasida raqobatdan ko'ra o'zaro manfaatli integratsiya ehtiyoji kuchayib borayotganini anglatadi.

Bugungi global beqarorlik sharoitida yangi O'zbekiston tanlagan yo'l ochiq iqtisodiyot, tinchlik va taraqqiyot yo'lidir. Aynan shu oqilona siyosat mamlakatning xalqaro iqtisodiy nufuzini mustahkamlash, investitsion jolibadorligini oshirish va kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyot asoslarini yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

#### Sherzod QURBONOV, iqtisodiy tahlilchi

Joriy yilning 6-may kuni Prezidentimiz O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni va iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshirilayotgan islohotlarga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishgani jamoatchilikka ushbu masalaga qiziqishni yanada oshirdi.

#### Oltin muvozanat

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Buni faqat tashqi savdo erkinlashuvi sifatida baholash to'g'ri emas. Chunki JSTga integratsiya mamlakat iqtisodiyotini xalqaro raqobat muhitiga olib chiqadi, ishlab chiqaruvchilarni sifat va samaradorlikka undaydi hamda bozorda tabiiy raqobat muhitini shakllantiradi.

Bu transformatsiya O'zbekiston iqtisodiyotining xomashyoga qaram modeldan yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan industrial iqtisodiyotga o'tishini tezlashtirishi mumkin. Bugungi dunyoda asosiy daromad xomashyodan emas, balki texnologiya, muhandislik va intellektual mahsulotlardan shakllanmoqda. Shuning uchun mamlakat oldidagi asosiy vazifa tabiiy resurslarni shunchaki eksport qilish emas, balki chiqar qayta ishlab, tayyor va raqobatbardosh mahsulotlarga aylantirishdir.

Mamlakatimizda Mendeleyev jadvalidagi deyarli barcha strategik elementlar mavjud. Endi bu imkoniyatni samarali ishga solish vaqti keldi. Masalan, mis, litiy, uran va nodir metallar asosida akkumulyatorlar, elektrotexnika mahsulotlari, sanoat uskunalar va "yashil iqtisodiyot" uchun zarur texnologiyalar ishlab chiqarish tashqi savdo salohiyatini bir necha barobar oshirishi mumkin. Bu esa O'zbekistonda o'zgarib bormoqda. Bu esa kelajakda O'zbekistonning nafaqat mintaqaviy, balki global iqtisodiy ahamiyatini ham sezilarli darajada oshiradi.

Shu ma'noda, O'zbekistonning JSTga integratsiyalashuvi nafaqat tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirish, balki

**JST qoidalarini davlat subsidiyalari va proteksionist mexanizmlarni bosqichma-bosqich qisqartirishni talab qiladi. Ya'ni davlat qo'lloviga o'rganib qolgan ayrim tarmoqlarni yangi iqtisodiy muhitga moslashishga undaydi.**

tamoyillariga tobora yaqinlashayotganini ko'rsatadi.

Ikki tomonlama muzokaralar ham yangi bosqichga chiqqan. 40 dan ortiq muzokara raundi o'tkazilib, 2025-yilning o'zida 11 ta davlat bilan kelishuvga erishildi. Natijada O'zbekiston bilan JSTga a'zolik bo'yicha muzokaralarni yakunlagan davlatlar soni 33 taga yetdi. Bu esa mamlakatning xalqaro iqtisodiy muhitida ishonchli va prognoz qilinadigan hamkor sifatidagi nufuzi oshib borayotganini anglatadi.

Muhimi, JSTga qo'shilish jarayoni ichki iqtisodiy islohotlarni ham jadallashtirmoqda. Xususan, o'tgan yilning o'zida 68 ta qonunchilik hujjati xalqaro me'yorlarga moslashtirildi. Intellektual mulk sohasidagi

ishlari ham yangi bosqichga chiqdi. Ilgari ortiqcha byurokratik to'siq bo'lib kelgan qator sertifikatlash tizimlari qayta ko'rib chiqildi. Jumladan, 747 ta tovar pozitsiyasi bo'yicha majburiy sertifikatlash talablari bekor qilinib, texnik cheklovlar sezilarli qisqartirildi. Bu tadbirkorlar uchun tashqi bozorlarga chiqishni yangilash bilan birga ichki bozorda raqobat muhitini ham kuchaytirmoqda.

Bu kabi islohotlar faqat JSTga a'zo bo'lish uchun amalga oshirilayotgani yo'q. Ularning asosiy maqsadi ochiq, raqobatbardosh va zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishdir. Chunki bugungi dunyoda iqtisodiy muvaffaqiyat faqat tabiiy resurslar yoki ichki bozor hajmi bilan emas, balki investitsion ishonch, erkin



tartiblar soddalashtirildi, eksport cheklovlari bekor qilindi, minimal eksport narxlarini belgilash amaliyotidan voz kechildi. Bu iqtisodiyotda ma'muriy aralashuvni qisqartirish va bozor mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

raqobat va xalqaro qoidalariga mos iqtisodiy tizim bilan ham belgilanadi.

Shu ma'noda, O'zbekistonning JSTga a'zolik jarayoni oddiy texnik muzokara emas. Bu O'zbekiston iqtisodiyotini sifat jihatidan

Bugun O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlar zamirida inson qadri, farovon hayot va teng imkoniyatlar masalasi turibdi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash, bilim olishi, mehnat qilishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratib berilmoqda.

Shu nuqtayi nazaridan, gender budgetlashtirish masalasi hozir alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oddiy qilib aytganda, bu budget mablag'larini taqsimlashda erkaklar va ayollar, yigitlar va qizlarning hayotiy ehtiyojlari, imkoniyatlari va mavjud sharoitlarini inobatga olish demakdir. Bu o'rinda qad ayollar uchun alohida budget tuzish haqida emas. Aksincha, mavjud budget siyosati yanada adolatlilik, aniq manzilli va samarali bo'lishi haqida.

Amaliyotga ko'ra, ba'zan bir xil dastur turli toifadagi aholiga har xil ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kasb-hunar o'rgatish, bandlikni ta'minlash yoki ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish dasturlarida ayollar va erkaklar uchun bir xil imkoniyat yaratilgandek ko'rinsa-da, natijada farqlar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Shu bois,

budget siyosatida ehtiyojlarni yanada chuqur o'rganish va tahlil qilish muhim.

Jahon tajribasida gender budgetlashtirishga qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ushbu yondashuv budget jarayonining bir qismiga aylanib ulguragan. Avstraliya, Shvetsiya, Germaniya, Avstriya, Janubiy Koreya, Filippin, Hindiston kabi davlatlarda gender tahlili orqali davlat xarajatlarining aholi turmushiga ta'siri baholandi.

Mamlakatimizda ham gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. Gender tenglikka erishish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi. Qonunchilik va institutsional asoslar takomillashirilmoqda. Bu sohada statistika va tahlil ishlari bosqichma-bosqich kuchaytirilmoqda. Eng muhimi, mazkur yo'nalishda davlat siyosatining izchilligi

ta'minlanmoqda. Ta'lim, tibbiyot, oilani qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlashda xotin-qizlar manfaatlarini hisobga olishga tobora katta e'tibor qaratilmoqda.

Albatta, hayotning o'zi ayrim sohalarida yanada manzilli yondashuvlarni talab etmoqda. Masalan, yosh qizlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ayollar bandligini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish kabi vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda, gender budgetlashtirish ushbu jarayonlarni yanada tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Birinchi, u budget mablag'larining aniq manzilga yetib borishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, davlat dasturlarining amaliy natijasini yaxshiroq baholash imkonini beradi. Uchinchi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan xarajatlarni samaradorligini oshiradi. To'rtinchidan, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini

## GENDER BUDJETLASHTIRISH — ANIQ MANZILLI SAMARALI TIZIM

#### Ijtimoiy siyosat



rag'batlantirish orqali mamlakat iqtisodiyoti o'sishiga qo'shimcha turtki beradi.

Bugun butun dunyoda iqtisodiy o'sish faqat ishlab chiqarish yoki investitsiya bilan emas, balki inson kapitali sifatida baholalanmoqda. Agar ayollar o'z bilim va salohiyatini to'liq ro'yog'ga chiqara olsa, bu oila farovonligiga ham, jamiyat barqarorligiga ham, iqtisodiyot rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kelajakda gender budgetlashtirishni yanada samarali yo'lga qo'yish uchun qator yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim. Avvalo, davlat dasturlarida genderga oid ko'rsatkichlarni bosqichma-bosqich kengaytirish lozim. Budget mablag'larining ijtimoiy ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish kerak.

Gender budgetlashtirish shunchaki yangi atama yoki nazariy tushuncha emas, balki davlat mablag'larini inson manfaatiga yo'lida yanada to'g'ri, adolatlilik va samarali yo'naltirishga qaratilgan muhim amaliy vositadir.

O'zbekistonda ham bu borada mustahkam huquqiy asos yaratilmoqda. Islohotlar, qonunchilikdagi yangilanishlar, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy choralar gender budgetlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish uchun qulay sharoit hozirlamoqda.

**Nargiza JIYANOVA,**  
iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

Bugungi globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berish barobarida u bilan chambarchas bog'liq murakkab ijtimoiy-madaniy tahdidlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Xususan, "ommaviy madaniyat"ning tobora agressivlashib borayotgan shakllari milliy identitet, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlar tizimiga sezilarli bosim o'tkazmoqda. Bu hodisa endi oddiy madaniy jarayon emas, balki davlat va jamiyat xavfsizligiga daxldor strategik masalaga aylanib boryapti. Zamonaviy siyosatshunoslik va sotsiologiya nazariyalarida ham bu fikr keng e'tirof etiladi.

Demak, milliy o'zlikni anglash va mustahkamlash har qanday mustaqil davlatning ustuvor vazifasidir. Shu nuqtayi nazardan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ma'naviy-intellektual tiklanish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday jamiyatning uzoq muddatli barqarorligi va taraqqiyoti uning iqtisodiy ko'rsatkichlaridan ko'ra, ma'naviy asoslariga bog'liq.

Iqtisodiyot nazariyasida "inson kapitali" degan tushuncha mavjud bo'lib, u nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki shaxsning qadriyatlarini, motivatsiyasi va axloqiy sifatlarini ham qamrab oladi. Demak, kasb shaxsning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantiruvchi muhim omildir.

Bu jihadni buyuk mutafakkirlarimiz merosida ham yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, Imom Buxoriy o'zining ilmiy faoliyati orqali ilmiy ma'naviy poklanish vositasi sifatida talqin etgan. Uning hadis ilmidagi yondashuvi aniqlik, halollik va mas'uliyat prinsiplariga asoslangan bo'lib, bugungi ilmiy metodologiya talablariga ham to'liq mos keladi.

Alisher Navoiy esa inson kamolotini to'la ma'noda ma'naviyat bilan bog'laydi. Uning asarlarida komil inson yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxsdir. Navoiy ta'limotida mehnat, halollik, fidoyilik kabi qadriyatlar markaziy o'rin egallaydi. Bu esa bugungi kasb egasining ideal modelini belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa tarixiy-ma'naviy merosni innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Bugun dual ta'lim, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, modul tizimlari aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Biroq ularning samaradorligi faqat texnik ko'rsatkichlar emas, balki tarbiyaviy komponent bilan belgilanadi. Zero, kasb egasi faqat malakali mutaxassis bo'lib qolmasligi kerak. U jamiyatning faol fuqarosi hamdir.

**"Ruhiy inklyuziya" tamoyili**

Yoshlar mafkurasini shakllantirish masalasi har qanday jamiyat taraqqiyotining eng murakkab va mas'uliyatli yo'nalishlaridan. Bu jarayonni oddiy targ'ibot, shior yoki yuzaki nasihat bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki mafkura tashqi ta'sir natijasi emas, balki ichki e'tiqod, ongli tanlov va qalbag singgan qadriyatlar tizimidir. Demak, yoshlar bilan ishlashda asosiy urg'u o'ngandan tashqari, qalbag yo'l topishga ham qaratilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kasbiy ta'lim tizimida mafkuraviy tarbiyaning yangi modeli — "Ruhiy inklyuziya" tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha yoshlarni milliy qadriyatlar va mafkura majburlash bilan emas, balki ularni ichdan bog'lash, o'zligini anglashga yo'naltirish orqali shakllantirishni anglatadi.

"Ruhiy inklyuziya"ni ta'minlash tizimlari va ilmiy asoslangan mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Ularning ichida birinchi va eng muhim yo'nalish tarixiy xotira hamda vorislikni ta'minlashdir. Har bir kasb, har bir hunar o'z tarixiga ega. Bu tarix avlodlar tajribasi, mehnat falsafasi va ma'naviy qadriyatlar tizimi. O'zbek zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar hayoti bu borada beqiyos ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimi mislsiz darajada tezlashdi. G'ibrid urushlar, axborot xurujlari, madaniy ekspansiya kabi hodisalar yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ularni himoya qilishning



**Yuksak jamiyat sari**

**KASBIY TA'LIMDA YANGILANAYOTGAN TAFAKKUR VA G'URUR RENESSANSI**

eng samarali yo'li ichki mustahkamlikni shakllantirishdir. Psixologiyada bu holat "maqsadli hayot strategiyasi" bilan izohlanadi. Ya'ni o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan, kelajagini rejalashtira olgan shaxs tashqi salbiy ta'sirlarga kamroq beriladi. Kasb egallagan, o'z o'rnini topgan yosh esa ma'naviy bo'shliqqa tushmaydi. Chunki uning hayoti mazmun bilan to'lgan.

Uchinchi muhim omil — ma'rifiy muhitni shakllantirishdir. Ta'lim muassasasi shaxs shakllanadigan ijtimoiy makon. Shu bois, unda yaratilgan muhit bevosita yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalaridagi adabiyot kechalari, teatr tomoshalari, tarixiy uchrashuvlar, ijodiy tanlovlarning tizimli yo'lga qo'yilishi aynan shu muhitni shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bu "yashirin o'quv dasturi" tushunchasi bilan izohlanadi. Ya'ni o'quvchi muhit, munosabatlar va ijtimoiy tajriba orqali ham tarbiyalanadi. Demak, ma'naviyatni shakllantirish uchun maxsus darsdan ko'ra, to'g'ri tashkil etilgan muhit muhimroq bo'lishi mumkin.

**Ona tili — mustahkam poydevor**

Milliy mafkuramiz, milliy qadriyatlarimiz hamda milliy ma'naviyatimiz haqida gap borar ekan, shubhasiz, tafakkur qulfining ochqichi bo'lmish ona tilimiz haqida qayg'urmaslikning iloji yo'q. "Til yashasa — millat yashaydi." Bu hikmat bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida yanada chuqur ma'no kasb etmoqda. Zero, til millatning tarixiy xotirasini, madaniy kodi va tafakkur shaklidir. U orqali xalq o'zligini anglaydi, dunyoni idrok etib, kelajakni barpo etadi. Shu bois, davlat tilining rivoji masalasi endi bevosita milliy xavfsizlik va barqarorlik omiliga aylanmoqda.

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning boy imkoniyatlarini ilmiy asosda isbotlab bergan va ona tilining nufuzini yuksaltirish orqali milliy o'zlikni mustahkamlash g'oyasini ilgari surgan. Navoiy uchun til shunchaki ifoda vositasi emas, balki millatning ruhiy mustaqilligi timsoli edi.

Bugungi yangi O'zbekiston sharoitida ushbu g'oyalari yangi mazmun bilan boyimoqda. Xususan, kasbiy ta'lim tizimida davlat tilining to'laonli amal qilishi qator strategik yo'nalishlar orqali ta'minlanishi zarur.



**Ilhom XOLMURODOV, Kasbiy ta'lim agentligi direktorining ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi**

Birinchiidan, kasbiy fanlarni to'liq davlat tilida o'qitish masalasi bilimlarni milliy tafakkur asosida qayta talqin etishni talab qiladi. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchi o'z ona tilida o'zlashtirgan bilimni chuqurroq anglaydi va uni amaliyotda samarali qo'llay oladi.



Ikkinchiidan, sohaviy terminologiyani tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Har bir fan va kasb o'zining aniq tushunchalar tizimiga ega. Agar bu tushunchalar tartibli, yagona va ilmiy asoslangan holda shakllantirilmasa, bilim uzatishda uzulishlar yuzaga keladi.

Uchinchiidan, kasbiy hujjat yuritishni davlat tilida takomillashtirish jarayoni juda muhim. Chunki amaliy faoliyatda tiling real kuchi aynan texnik yozishmalar, normativ hujjatlar orqali namoyon bo'ladi. Agar ish yuritish tizimi to'liq davlat tilida ishlasa, bu til nufuzini oshirish barobarida boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Ilgari surilayotgan muhim takliflardan biri milliy terminologiya markazlarini kasbiy ta'lim tizimi bilan chuqur integratsiya qilishdir. Bu yondashuv ilm-fan, ta'lim va

yetakchi sifatida namoyon bo'lgan. Shogird esa kasb sirlarini egallash bilan birga ustozining hayotiy tajribasi, odobi, dunyoqarashi va qadriyatlarini ham o'zlashtirgan. Sharq pedagogik tafakkurida bu yondashuv chuqur ilmiy-falsafiy asosga ega. Xususan, Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarida komil insonni shakllantirishda ustozning shaxsiy namunasi hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, haqiqiy ustoz bilim berishi barobarida fazilatlarini bilan o'quvchiga ibrat bo'lishi lozim. Bu esa ustoz-shogird

**Bugun yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichiga — Uchinchi Rennessans sari qat'iy ishonch bilan odimlamoqda. Bu atama shunchaki balandparvoz g'oya emas, balki chuqur tarixiy ildizlarga ega, milliy o'zlik va zamonaviy taraqqiyot uyg'unligiga asoslangan konseptual rivojlanish modeli.**

ishlab chiqarish o'rtasida yagona til muhitini shakllantirish imkonini beradi. Natijada nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut qisqaradi, bilimlar uzluksizligi ta'minlanadi. Dunyo tajribasi ham bu borada muhim saboq beradi. Masalan, Yaponiya yoki Janubiy Koreya kabi davlatlar o'z milliy tilida ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish orqali global

munosabatlarining mohiyatini ochib beradi: bilim uzatiladi, tarbiya singdiriladi. Yoshlar texnologiyani tez o'zlashtiradi, yangi bilimlarni qisqa muddatda egallay oladi. Biroq ular ko'pincha hayotiy tajriba, ma'naviy yo'naltirish va ijtimoiy mas'uliyat kabi masalalarda tayanchga muhtoj bo'ladi. Aynan shu nuqtada ustozning o'rni beqiyos. Chunki texnologiya bilim beradi, lekin qadriyat bermaydi, axborot ko'payadi, ammo hikmat faqat tajriba orqali shakllanadi.

Shu bois, bugun o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, ularni faqat pedagog emas, balki ma'naviyat targ'ibotchisi sifatida e'tirof etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ustozning maqomi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatning ma'naviy darajasi ham shunchalik yuksaladi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiladi. Milliy tafakkurimizda keng tarqalgan "Hunar — oqar daryo" degan hikmat bugun yangicha mazmun kasb etmoqda. Ilgari bu ibora hunarning uzluksizligi va davomiyligini anglatgan bo'lsa, bugun u innovatsion rivojlanish, bilimlarning doimiy yangilanib borishi hamda kasbiy moslashuvchanlikni ham qamrab oladi. Chunki zamonaviy iqtisodiyot sharoitida bir martalik bilim yetarli emas, doimiy o'rganish va rivojlanish zarur.

**Yoshlar nafaqat iste'molchi...**

XXI asr insoniyatni mutlaqo yangi — raqamli sivilizatsiya bosqichiga olib chiqdi. Endi axborot tezligidan tashqari uzluksiz oqim sifatida inson ongiga kirib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar hayoti internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Bunday sharoitda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni an'anaviy, bir yoqlama usullar orqali bajarish kutilgan natijani bermaydi. Chunki auditoriya o'zgardi. Demak, yondashuv ham o'zgarishi shart.

**"Ustoz-shogird" an'anasi**

O'zbekiston tarixida "ustoz-shogird" an'anasi mukammal tarbiya tizimi sifatida shakllangan. Bu tizimda ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki hayot yo'lini ko'rsatuvchi, shaxsni kamolotga yo'naltiruvchi ma'naviy

Bugungi yoshlar axborotni faqat iste'mol qilmaydi, uni yaratadi, ulashadi, qayta talqin qiladi. Shu bois, ma'naviyatni ham endi statik tushuncha deb bo'lmaydi. U dinamik, interaktiv va raqamli shaklga ega bo'lishi zarur. Bu jarayon ilmiy adabiyotlarda "raqamli transformatsiya" deb ataladi hamda iqtisodiyot qatorida madaniyat va tarbiyaga ham bevosita ta'sir etadi.

Hozir ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi axborot manbalari aylangan. Agar milliy qadriyatlar aynan shu maydonda kreativ, zamonaviy va jozibador shaklda targ'ib qilinmasa, bu bo'shliqni boshqa, ko'pincha yot g'oyalarga egallashi mumkin. Shu bois, milliy kontent yaratish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Bu kontent vizual va emosional jihatdan ham ta'sirchan bo'lishi kerak. Masalan, qisqa videolavhalar, animatsiyalar, podkastlar, bloglar orqali tarixiy meros, milliy qahramonlar, kasbga sadoqat, halollik kabi qadriyatlarimiz yoshlar tilida ifoda etish mumkin. Bu esa ma'naviyatni qiziqarli va jozibador jarayonga aylantiradi.

Yana bir muhim yo'nalish — vatanparvarlikning amaliy modelini shakllantirishdir. Nazariy targ'ibot o'z-o'zicha yetarli emas. Yoshlar uchun "Vatan sevgisi" tushunchasi aniq amaliy faoliyat orqali anglashilasa, u barqaror e'tiqodga aylanadi. Shu ma'noda, "Vatan sevgisi — amalda" tamoyili dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada volontyorlik harakatlari, ekologik aksiyalar, ijtimoiy loyihalar, mahalla tashabbuslari katta imkoniyat yaratadi. Masalan, yoshlarning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ishtiroki ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Shuningdek, raqamli tarbiya tizimini shakllantirish ham ma'naviy qadriyatlarini zamonaviy texnologiyalar orqali yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiladi. Mobil ilovalar, interaktiv platformalar, gamifikatsiya elementlari asosida yaratilgan dasturlar bu borada samarali vosita bo'la oladi. Zamonaviy ta'lim nazariyalarida bu jarayon "edutainment" (education + entertainment), ya'ni o'yin orqali o'qitish konsepsiyasi deya izohlanadi. Bu yondashuv yoshlarning qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi va bilimni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan interaktiv o'yinlar yoki kasbiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi simulyatorlar yoshlar uchun bir vaqtning o'zida ham bilim, ham tarbiya manbai bo'lishi mumkin. Bunday tashqari, raqamli muhitda "axborot gigiyenasini"ni shakllantirish ham muhim. Chunki axborot ko'pligi sharoitida to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotni ajratish qobiliyati zamonaviy ma'naviyatning ajralmas qismidir.

**Kelajak ilmiy avlod qo'lida**

Bugun yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichiga — Uchinchi Rennessans sari qat'iy ishonch bilan odimlamoqda. Bu atama shunchaki balandparvoz g'oya emas, balki chuqur tarixiy ildizlarga ega, milliy o'zlik va zamonaviy taraqqiyot uyg'unligiga asoslangan konseptual rivojlanish modeli. Zero, insoniyat tarixida yuz bergan har bir renessans, avvalo, tafakkur uyg'unlashi, ma'naviy yangilanishi va ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Markaziy Osiyo hududi esa allaqachon ikki buyuk uyg'unlashuv davrini boshdan kechirgan. Bugungi Uchinchi Rennessans esa tarixiy merosni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Uning asosiy tayanchi — bilimli, kasb-hunar egallagan, mustaqil fikrlaydigan va eng muhimi, yuksak ma'naviyatli yoshlar. Chunki har qanday buyuk o'zgarishlar markazida inson omili turadi. Agar inson barkamol bo'lmasa, jamiyat ham taraqqiyot etmaydi. Yangi O'zbekistondagi islohotlar markazida "Inson qadri uchun" degan tamoyil turibdi. U nafaqat ijtimoiy siyosat, balki ta'lim tizimining ham bosh mezoniga aylanmoqda. Ayniqsa, kasbiy ta'lim tizimidagi yangilanishlar — dual ta'lim, zamonaviy standartlar, ishlab chiqarish bilan integratsiya — barchasi inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Biroq bu jarayonning eng muhim jihati shundaki, uning ruhi va mazmuni ma'naviyat bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Chunki faqat texnik bilimga asoslangan taraqqiyot barqaror bo'la olmaydi. Ma'naviy asos bo'lmasa jamiyatda rivojlanish muvozanatini yo'qotadi.


**Fikr**

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan zamonda mehnat bozorida yuqori malakali, amaliyotga tayyor, zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, sanoat, ishlab chiqarish, energetika, axborot texnologiyalari kabi tarmoqlarda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, dual ta'lim tizimi oliy ta'lim muassasalarini ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali talabalarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

**NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI BITIRUVCHI UCHUN AYNI ZARURAT**

Texnika va muhandislikning iqtisodiyotdagi o'rini inobatga olsak, Toshkent davlat texnika universitetida dual ta'lim nechog'liq ahamiyatli

ekanini anglash qiyin emas. Dual ta'lim o'quv jarayonini ikki muhitda, ya'ni oliy ta'lim muassasasidagi nazariy mashg'ulotlar va ishlab



chiqarish korxonasidagi amaliy faoliyat asosida tashkil etish tizimidir. Uning mohiyati shundaki, talaba bir vaqtning o'zida ham bilim oluvchi, ham ishchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa uning kasbiy ko'nikmalari, mehnat intizomi va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantiradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoatni diversifikatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish kabi jarayonlar yuqori malakali muhandis va texnik mutaxassislarga ehtiyojni yanada oshirdi. Bu borada universitet qator yirik sanoat korxonalarini bilan aloqalarini yo'lga qo'ygan. Ular talabalarimiz uchun amaliyot o'tash, dual ta'limni tashkil etish, ilmiy tadqiqot ishlarni o'tkazish va kelgusida ishga joylashish imkonini beradi.

Joriy o'quv yilida universitetimizni 5366 talaba tamomlamoqda. O'quv-uslubiy kengash xulosasiga ko'ra, mazkur o'quv yili davomida kunning ikkinchi

yarmida Toshkent shahridagi korxonalarda muddatidan avval amaliyot o'tash tadbiri tashkil etildi. "Kelajakka qadam" dasturi doirasida bitiruvchi kurs talabalarimizning 22 ta loyihasi moliyalashtirilib, umumiy qiymati 1 milliard 675 million so'mni tashkil etdi.

Universitetning korxonalar huzurida 52 ta kafedra filiallari to'g'ridan to'g'ri tashkil etilgan. Ushbu jarayonga 2006 talaba jalb etilgan. Yigit-qizlar uchun 151 turdagi mutaxassislarga fanlaridan amaliy va laboratoriya darslari bevosita ushbu korxonalarda tashkil etilib, mashg'ulotlar zamonaviy uskunalar, texnologik liniyalar va ishlab chiqarish infratuzilmasi asosida o'tilmoqda. Bu esa talabalarimiz kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Masalan, "Bo'ka fotoelektr stansiyasi" hududida Toshkent davlat texnika universiteti hamda Xitoyning "China Datang" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Yashil energiya texnologiyalari va dual ta'lim markazi" tashkil etildi. Bu kabi markazlar dual ta'limga yangi mazmun baxsh etadi.

Dual ta'lim bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichini sezilarli darajada

oshiradi. Talaba o'qish davomida yuqori muayyan korxonada faoliyat yuritgani sababli, ish beruvchi uning qobiliyati, intizomi va bilim darajasini baholaydi. Shu asosda bitiruvdan so'ng doimiy ish taklif etilishi ehtimoli yuqori bo'ladi. An'anaviy ta'limda bitiruvchi ishga kirgach, muayyan muddat moslashuv jarayonini boshdan kechiradi. Dual ta'limda esa bu jarayon o'qish davridayoq amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish muhiti talabalarda mas'uliyat, jamoaga moslashish, muammolarni tezkor hal etish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Shunday ekan, dual ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, uning huquqiy va shaklliy asoslarini mustahkamlash, korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali yoshlarning hududida ta'minlash ayni muaddo. Qolaversa, bu ish tutumi mamlakatimiz sanoat salohiyatini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Oripjon ZARIPOV, texnika fanlari doktori, professor**

# BO'LGIN ZO'RDAN ZO'R, O'G'LO!



Bolaligimdan futbol muxlisiman. O'zim ham sportchi edim, qo'l to'pi bo'yicha viloyat terma jamoasida o'ynardim. O'sha paytda "Paxtakor" jamoasi o'yinchisi Birodar Abduraimov mashhur, meni esa "maktabimizning Abduraimovi" deyishardi.

O'smirlik, yoshlik yillari, undan keyin ham dunyo chempionatlarida, garchi birorta o'zbek yigiti tarkibiga kiritilmagan bo'lsa ham, sobiq ittifog terma jamoasi o'yinlarining hammasini ko'rdim, kuyib-yonib ishqibozlik qilardik.

Endi jahon yashil maydonlarida o'zimizning qorako'zlarimiz O'zbekiston xalqi, Prezidentimizning ishonchini oqlab, mustaqilligimiz zafarli odimlarini namoyish etib, dunyoviy e'tiroflarga sazovor zamonaviy futbol namoyish etayotganini, ketma-ket jahoniy ahamiyatga ega yutuqlarga erishayotganini kuzatish nechog'liq faxrli, quvonchli ekanini so'zda ifodalash qiyin.

Quyidagi satrlar shu tuyg'ulardan qatra, xolos.

Olqishlaydi millionlar,  
Championim — hur o'g'lon!  
Yangi O'zbekistondak  
Ko'ksing kerib tur, o'g'lon!

Hakam hushtagin chalar,  
O'zbek — xalq qo'l ko'tarar —  
Dunyo duoga to'lar:  
"Bo'lg'in zo'rdan zo'r, o'g'lon!"

Senda kibr-u havo yo'q,  
Nasling — ko'rgan, ko'ngling to'q,  
Ko'ksing to'la g'ayrat, cho'g'  
Yuzlaringda nur, o'g'lon!

G'ururi Osiyosan,  
Ajodlari donosan,  
Raqiblarining xatosin  
G'alabaga bur, o'g'lon!

Aylantirib tep to'pni,  
Nayrang qilib tep to'pni,  
Hayratlantirib ko'pni,  
Zargarona ur, o'g'lon!

Qo'rquvga hech yondashmay,  
Zo'r sinovda engashmay,  
Jizzakiga tenglashmay,  
Yo'ling o'ngga bur, o'g'lon!

Sherdek guvrab borgin-da,  
Raqib to'rin yorgin-da!  
O'z darvozan oldida  
Qoyatoshdek tur, o'g'lon!

Dong chiqarmas yolg'iz ot,  
Hamjihatlilik — kuch, sabot,  
Markaz, o'ng-u chap qanot  
Shiddattinga jo'r, o'g'lon!

Sharaf yerda yotmaydi,  
Lahza uchqur — kutmaydi,  
Mardlar ortga qaytmaydi,  
Faqat olg'a yur, o'g'lon!

Xalqning orzu-o'ylarin,  
Bir asrlilik so'rarin —  
Sharqning futbol yo'llarin  
Buyugini qur, o'g'lon!

Sen saxiy elga farzand,  
Bag'rikengsan, serhimmat,  
Shohsupalarda faqat  
Doim g'olib tur, o'g'lon!

Yuzlaringda nur, o'g'lon!  
Ko'ksing kerib tur, o'g'lon!  
Faqat olg'a yur, o'g'lon!  
Bo'lg'in zo'rdan zo'r, o'g'lon!

Muhtarama ULUG'OVA

Dasturning umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etadi. Bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanadi. Bu yurtimiz tarixida kitobxonlik bo'yicha eng salmoqli mukofot bo'ladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

XXI asrda davlatlarning raqobatbardoshligi inson kapitali sifati bilan belgilanyapti. Bugun xalqlarning boyligi intellektual salohiyati, ya'ni jamiyatning fikrlashi, tahlil qilishi, innovatsiyalar yaratishi va tez o'zgarayotgan dunyoga moslasha olish qobiliyati bilan baholanmoqda. Shu bois, mutolaa madaniyatiga endi faqat gumanitar masala emas, balki milliy taraqqiyotning muhim omili, inson kapitali, davlat barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq strategik yo'nalish sifatida qaralyapti.

## Munosabat

# ENG BUYUK USTOZ, BEQIYOS XAZINA



Azamat KAMOLOV,  
Maktabgacha va maktab ta'limi  
vazirligi boshqarma boshlig'i

Taraqqiyotga erishgan barcha jamiyatlar, avvalo, intellektual yuksalish bosqichidan o'tgan. Yuqori mutolaa madaniyati insonda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, dunyoqarashni kengaytiradi, mustaqil qaror qabul qilish va bilim olish qobiliyatini oshiradi. Kitobxon jamiyat radikalizm, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tanazzulga kamroq moyil bo'ladi. Zero, kitob nafaqat bilimli insonni, balki yetuk fuqaroni ham tarbiyalaydi.

Zamonaviy dunyoda mutolaaning ahamiyati yanada ortib boryapti. Raqamli texnologiyalar asri ulkan axborot oqimini yaratdi. Ammo paradoks shundaki, bu ma'lumotlarni chuqur anglash darajasini pasaytirdi. Ana shunday

sharoitda mutolaa madaniyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati mamlakatning intellektual xavfsizligi masalasiga aylanayapti.

Bu bejiz emas. Rivojlangan mamlakatlar mutolaani uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining muhim qismi sifatida ko'radi. Janubiy Koreya, Singapur, Finlyandiya, Yaponiya kabi davlatlar texnologik yetakchilikka, avvalo, ta'lim va kitobxonlikka yuksak e'tibor orqali erishgan. Chunki innovatsion iqtisodiyot zavod yoki texnologiyalar bilan emas, balki insonning fikrlay olishga o'rganishi va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatidan boshlanadi.

O'zbekistonda ham mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilyapti. Yurtimizda kitob sanoati, kutubxona tizimi va yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui shakllantirildi. Asosiy yo'nalishlardan biri sifatida kutubxona tizimini modernizatsiya qilish, kitob fondini



Zamonaviy dunyoda mutolaaning ahamiyati yanada ortib boryapti. Raqamli texnologiyalar asri ulkan axborot oqimini yaratdi. Ammo paradoks shundaki, bu ma'lumotlarni chuqur anglash darajasini pasaytirdi. Ana shunday sharoitda mutolaa madaniyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati mamlakatning intellektual xavfsizligi masalasiga aylanayapti.

kengaytirish, elektron kutubxonalar va raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish ishlari bajarilmoqda.

Davlat badiiy, ilmiy-ommabop va bolalar adabiyotini nashr etish, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishni faol qo'llab-quvvatlayapti. Bularning barchasi nafaqat kitoblar ommabopligini oshirish, balki mutolaa jamiyat hayotining tabiiy qismiga aylanganidan to'laonli intellektual muhitni shakllantirishga xizmat qilaypti.

Bu jarayonda "Yosh kitobxon" tanlovi alohida o'rin tutadi. Ushbu loyiha mamlakat yoshlari o'rtasidagi eng yirik ma'rifiy tashabbuslardan biriga aylanib, kitobxonlikni nufuzli intellektual qadriyat sifatida shakllantirishda katta o'rin tutmoqda. Tanlov orqali o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini, Sharq mutafakkirlari merosi qamrab olingan bo'lib, yosh avlodga bilim, tarix va milliy madaniyatga chuqur qiziqish uyg'otish maqsad qilingan.

Prezidentimiz joriy yil 22-may kuni Xalqaro kongress markazida O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha umummilliy harakatga start berish marosimida ishtirok etdi. Mazkur yo'nalishning davlat va jamiyat uchun naqadar muhim ekanini ta'kidlab, jamoatdoshlik asosida harakatni yanada kengaytirish, yoshlar qalbidagi muhitni kuchaytirish, yoshlar qalbidagi yangi buniyodkorlik ruhini uyg'otishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda bolaning shakllanish jarayonida kitobga mehr uyg'otish juda muhim. Prezidentimiz ushbu tashabbusni maktablar, oilalar va butun jamiyatda kitobxonlik muhitini kuchaytirish, yoshlar qalbidagi yangi buniyodkorlik ruhini uyg'otishga xizmat qilishini ta'kidladi.

beg'araz ko'makchi. Biz yangi O'zbekistonda mutolaa madaniyatini, kitobga e'tiborni davlat siyosati darajasiga ko'taryapmiz. Zotan, kitobxonlik faqat ta'lim masalasi emas, balki millatimiz, xalqimizning kelajagi, mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlaydigan beqiyos ma'naviy kuch.

Ta'kidlanganidek, bu tabarruk zamindan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy va Mirzo Ulug'bek singari mutafakkir zotlar butun insoniyat uchun ustozga aylangan. Ularning eng buyuk ustozlari esa beqiyos xazina — kitob bo'lgan. Yurtimizda ana shu meros va zamon talablaridan kelib chiqib, kitobxonlikni keng ommalashtirishga qaratilgan "Milliy kitobxonlik harakati" dasturi boshlanmoqda. Endi har yili mazkur ta'limning final bosqichi Prezident darajasida o'tkaziladi. Dasturning umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etadi. Bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanadi. Bu yurtimiz tarixida kitobxonlik bo'yicha eng salmoqli mukofot bo'ladi. Eng muhimi, mazkur harakat mamlakatimiz hududlarini qamrab oladi. Tanlovda umumta'lim maktablarining barcha sinf o'quvchilari ishtirok etadi.

Musaffo hamda xushmanzara tabiat, erkin muhit inson qalbiga alohida shukuh baxsh etib, kitob mutolaasiga ishtiyoqni oshiradi. Loyihada ishtirok etayotgan yoshlar sevimli asarlari haqida fikr almashmoqda. She'rlar o'qimoqda. Kitoblar yuzasidan muhokamalar tashkil etmoqda. Ayniqsa, jamoatchilik faollarining ushbu tashabbusdagi qizg'in ishtiroki loyihaning keng omma orasida targ'ib qilinishiga katta hissa qo'shadi. Ijtimoiy tarmoqlarda loyiha haqidagi ijobiy fikrlar, video va fotolavhalar keng tarqalayotgani esa uning ahamiyati hamda ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganidan dalolat.

Bugun mazkur loyiha Beruniy tumanida o'ziga xos ma'naviy harakatga aylandi. Barcha mahallalar, ovullar, ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarda ushbu tashabbusni davom ettirish bo'yicha takliflar ko'paymoqda. Bu esa xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlikka ehtiyoj va qiziqish tobora ortib borayotganini anglatadi.

# "TABIAT QO'YNIDA KITOBXONLIK"

## QORAQALPOG'ISTONLIK YIGIT-QIZLARNI FAOL MUTOLAA YO'LIDA BIRLASHTIRMOQDA

Bugungi globallashuv va axborot oqimi tezlashgan davrda aholini, ayniqsa, yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish har qachongidan ham dolzarb. Chunki kitob o'qimaydigan insonning ma'naviy immuniteti susayadi, fikrlash doirasi torayadi va turli yot g'oyalarga ta'sirchanligi ortadi. Kitob mustaqil fikrlashga, ezigulik va ma'rifatga yetaklaydi.

Kitobxonlik, avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-ona kitob o'qisa, farzand ham unga mehr qo'yadi. Uyda kitob javonining bo'lishi, farzand bilan birgalikda mutolaa qilish, o'qilgan asar haqida suhbatlar tashkil etish yoshlarda o'qishga qiziqish uyg'otadi.



Tashabbus

Shu ma'noda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani hokimligi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi hamkorligida

tashkil etilgan "Tabiat qo'ynida kitobxonlik" loyihasini jamoatchilik alohida qiziqish bilan kutib oldi. Mazkur loyiha dastlab qoraqalpog'istonlik yoshlar, deputatlar,

korxonalar va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan ma'naviyatga mas'ul xodimlar ishtirokida o'tkazildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholi,

ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi madaniyatini keng targ'ib qilish, kitobxonlik muhitini yaratish va ma'naviy-ma'rifiy hayotga yangicha ruh bag'ishlash bilan birga bugun dolzarb ahamiyat kasb etayotgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga o'ngli munosabatda bo'lishga da'vat etishdan iborat.

Musaffo hamda xushmanzara tabiat, erkin muhit inson qalbiga alohida shukuh baxsh etib, kitob mutolaasiga ishtiyoqni oshiradi. Loyihada ishtirok etayotgan yoshlar sevimli asarlari haqida fikr almashmoqda. She'rlar o'qimoqda. Kitoblar yuzasidan muhokamalar tashkil etmoqda. Ayniqsa, jamoatchilik faollarining ushbu tashabbusdagi qizg'in ishtiroki loyihaning keng omma orasida targ'ib qilinishiga katta hissa qo'shadi. Ijtimoiy tarmoqlarda loyiha haqidagi ijobiy fikrlar, video va fotolavhalar keng tarqalayotgani esa uning ahamiyati hamda ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganidan dalolat.

Bugun mazkur loyiha Beruniy tumanida o'ziga xos ma'naviy harakatga aylandi. Barcha mahallalar, ovullar, ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarda ushbu tashabbusni davom ettirish bo'yicha takliflar ko'paymoqda. Bu esa xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlikka ehtiyoj va qiziqish tobora ortib borayotganini anglatadi.

Pardagul RAZZOQOVA,  
Respublika Ma'naviyat va  
ma'rifat markazi Beruniy tumani  
bo'linmasi rahbari

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har bir yuksalish, har bir sivilizatsiya va buyuk kashfiyotlar zamirida ilm, ma'rifat va kitob turganini ko'ramiz. Kitob — eng yaqin do'st, ma'naviy ustoz va hayot yo'lini yorituvchi nur. U tafayil insonning fikrlash qamrovi kengayadi, hayotga munosabati o'zgaradi. Shu bois, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish har qanday jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"  
gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546. 30761 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.